



2019

**2018 - 2019 – O’QUV YILIDA  
O’RTA TA’LIM MAKTABLARINING  
9-SINF O’QUVCHILARI UCHUN  
TARIX FANIDAN MUSTAQIL  
SHUG‘ULLANISHLARI UCHUN**



**IMTIHON  
JAVOBLARI**

TOSHKENT – 2019

### **1-bilet**

**1. Misr.** Misr, Qadimgi Misr — Afrikaning shim.- sharqida, Nil daryosining quyi oqimida joylashgan qadimiy davlat. Misrda odamlar paleolit davridan boshlab yashagan. Miloddan avvalgi 10—6 ming yillikda Nil atrofidagi savannalarda tarqoq yashagan qabilalar terimchilik, ovchilik, keyinroq esa baliq ovlash bilan shug'ullanishgan. Miloddan avvalgi taxminan 3 ming yillikda ikkala podsholik birlashib, yagona davlat barpo bo'lgan. Misrning keyingi tarixi 4 asosiy davrga bo'linadi: Ilk podsholik (miloddan avvalgi taxminan 3000 — 2800), Qadimgi podsholik (miloddan avvalgi taxminan 2800—2250), O'rta podsholik (miloddan avvalgi taxminan 2050—1700), Yangi podsholik (miloddan avvalgi 1580—1070), So'nggi (Liviya-Sais va Eron) davr (miloddan avvalgi taxminan 1070—332). Misrda hunarmandchilik va savdoning yangi markazlari vujudga kelgan, savdo aloqalari (Arabiston va Hindistongacha) kengaygan, G'arb va Sharq davlatlari madaniyatlarining uyg'unlashuvi sodir bo'lgan. Miloddan avvalgi 2-asrning oxiriga kelib ishlab chiqarish pasaygan, bozorlar kamaygan, iqtisodiy va siyosiy tushkunlik ro'y bergan. Miloddan avvalgi 2-asr boshlarida Sshavkiylar davlati va Makedoniya bilan bo'lgan urushlardan so'ng Misr ko'p yerlaridan ajralgan. 619-yil Eron shohi Xusrav II Vizantiyaning zaiflashib qolganidan foydalanib, Misrni bosib olgan. 639—642 yillarda Misrni arablar zabt etgan.

**2. Amir Temur haqida ma'lumot bering.** Amir Temur 1336-yil 9-aprelda qadimgi kesh viloyatidagi (hozirgi shahrisabz) yakkabog` tumanida (Xo`ja ilg`or qishlog`ida) tug`uladi. Uning to`liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag`ay ibn Amir Barqul. Onasi Takinaxotun. Shayx Shamsiddin kulol Temurbekning piri bo'lgan. Amir temur mohir chavandoz va jangchi bo'lgan. Amir Temurning asosiy maqsadi markazlashgan davlat tuzish edi. Bu maqsadga 1370-yil 11- aprelda erishadi ungacha eesa 1365-yil tarixda mashhur bo'lgan loy jangida Ilyosxo`ja ustidan g`alaba qozonadi. Amir Temur birin ketin hududlarni qo`lga kirita boshlaydi. Jumladan sharqiy Turkiston tomon bir necha marta yurish qiladi. Mog`ullarga zarba berib Farg`ona, O`ror, Yassi va Sayramni bosib oladi. Hisor Badaxshon, Qunduzni ham egallaydi, 1381-yil Hirot, Seiston, Mazondaronni egallaydi. Shundan so`ng Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlarini jangsiz egallaydi. Xorazmga 5 marta yurish qilib 1382-yilda egallaydi. Amir Temur tarixda 3 yillik [1386-1388] 5 yillik [1392-1396] va 7 yillik [1399-1404] yurishlarni amalga oshiradi. Bu yurishlar davomida Eron, Ozarbayjon, Iroq, Suriya, Kavkaz kabi hududlarni egallaydi. U 1402-yil Usmoniylar imperiyasi hukmdori Boyazid bilan Anqara jangida to`qnashadi va g`alaba qozonib, Yevropani Usmoniylardan asrab qolib, Yevropa haloskori nomiga sazovor bo`ladi. Amir Temur 1405-yil 18-fevralda Xitoyga bo'lgan yurishida halok bo`ladi.

**3. “Kartel” atamasiga izoh bering.** Kartel, kartel bitimlari (ital. cartelio — qog'oz, hujjat) — ishlab chiqaruvchilar yoki iste'molchilarning monopolistik birlashmalari shakli; bir tarmokdagi mustaqil korxonalar, firmalar, kompaniyalarning ishlab chiqarish va sotishning umumiy hajmlari, narxlar, sotish bozorlari, har bir ishtirokchining xissasi, ishchi kuchi yollash to`g`risida bitimi.

### **2-bilet**

**1. Toxariston.** Toxariston - hozirgi Jan. O'zbekiston, Jan. Tojikiston, Shim. Afg'onistonni o'z ichiga olgan tarixiy viloyat. Shim.da Hisor tog'lari, Jan.a Hindukush, G'arbda Murg'ob va Herirud daryolari, Sharqda Pomir bilan chegaralangan. “Toxariston.” nomi mil. av. 2-asrda Yunon Baqtriya podsholigini tugatgan ko'chmanchi qabilalardan biri — toxarlar nomidan olingan. Toxariston mil. 1-4-asrlarda Kushon podsholigi tarkibiga kirib, uning o'zagini tashkil qilgan. Kushon podsholigi parchalangach, Toxariston alohida mulklarga bo'linib ketgan. Toxaristonni arablar zabt etgan. Keyinchalik u Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, G'uriylar davlati tarkibiga kirgan. 13-asr boshida Toxariston mo'g'ullar istilosi natijasida vayron qilingan. Toxariston Markaziy Osiyoda buddaviylik,

shuningdek, moniylikning rivojlanishi va tarqalishida muhim rol o'ynagan. 9-13-asrlarda Toxariston islom madaniyati va ilmining markazlaridan biri bo'lgan.

**2. Napoleon Bonapart haqida ma'lumot bering.** Napoleon Bonapart (1769-yil 15-avgust — 1821-yil 5-may) — fransuz inqilobining oxirgi bosqichlarida va fransuz inqilobi urushlarida mashhurlikka erishgan fransuz qo'mondoni va siyosiy yetakchisi. Napoleon Bonapart - fransuz davlat arbobi va sarkardasi, Fransiya Respublikasining birinchi konsuli (1799—1804), Fransiya imperatori (1804-14 va 1815). 10 yoshida Fransiyaning Oten kollejiga kirgan, so'ng o'sha 1779-yilda Briyenn harbiy o'quv yurtiga ko'chirilgan. 1784 yil mazkur o'quv yurtini muvaffaqiyatli tamomlab, Parij harbiy maktabiga (1784—85) o'tgan. 1785 yil podporuchik unvonida armiya xizmatini boshlagan. 1792-yil Yakobinchilar klubiga a'zo bo'lgan. U Parij shahri garnizoni qo'mondoni va 1796-yilda Italiyada harakat qilayotgan fransuz armiyasining bosh qo'mondoni etib tayinlangan. 1799-yil okt.da Parijga qaytib kelgan va 9—10 noyabrda davlat to'ntarishi o'tkazib, konsullik rejimini joriy etgan va amalda butun hokimiyatni o'z qo'lga olgan.

1802-yil o'zini umrbod konsul etib tayinlanishiga erishgan. 1804-yilda esa imperator deb e'lon qilingan. Buyuk davlatlar ittifoqiga qarshi olib borgan zafarli urushlari, Marengo (1800), Austerlits (1805), Iyena (1806)dagi ajoyib g'alabalari, imperiya hududini tez sur'atda kengayishi, Napoleon Bonapartni amalda butun G'arbda (Angliyadan tashqari) va Markaziy Yevropada hukmdorga aylanishi uning shon-shuhratini yanada oshirgan. 1812-yilda Rossiyaga qarshi yurishidagi mag'lubiyatidan so'ng o'zini o'nglay olmadi, uning "buyuk armiyasi" tor-mor qilindi, Yevropada Napoleon Bonapartning zul-miga qarshi xalq-ozodlik harakatlari ko'tarildi. Unga qarshi ittifoqchilarning harbiy uyushmalari vujudga keldi. So'nggi urushlarda uning mag'lubiyatga uchrashi, ittifoqchi qo'shinlarning Parijga kirib kelishi (1814-yil 31-mart), uni taxtdan voz kechishga majbur qildi. G'olib ittifoqchilar Napoleon Bonapart imperator unvonini saqlab qolib, Elba orolini uning ixtiyoriga berdilar. U ko'plab mamlakatlarning fuqarolik qonuniga katta ta'sir ko'rsatgan Napoleon Kodeksini yaratgan, lekin u ko'plab koalitsiyalarning Napoleon urushlari nomi ostida Fransiya qarshi olib borilgan urushlardagi hissasi tufayli mashhur.

**3. “Sindikat” atamasiga izoh bering.** Sindikat (lot. *sindicatus* — ishonchli, vakil) — bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar birlashmasi. Mahsulotni yagona savdo tarmog'i orqali birgalashib sotishni tashkil etish maqsadlarida tuziladi.

### 3-bilet

**1. Movarounnahr.** Movarounnahr (arab. — daryoning narigi tomoni) — o'rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama. Movarounnahr atamasi ilk bor payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) haqidagi hadislarda tilga olingan. Aftidan bu atama arablar orasida islomgacha bo'lgan davrlarda ham ma'lum bo'lib, u vaqtda (milodiy VI asr) Sosoniylar davlatidan shim.-sharqda, Jayxun, ya'ni Amudaryoning orqasida joylashgan Turk xoqonligiga qarashli yerlarni anglatgan. Arablar o'zlarining sharqqa qilgan ilk yurishlari davomida (VII asrning 2-yarmi — VIII asrning boshi) ikki xil tushuncha haqida ma'lumotga ega bo'lganlar: "ma duna-annahr", ya'ni "daryoning pastki tomoni", va "ma varo-annahr" — "daryoning narigi tomoni". Ulardan birinchisi Xurosondan sharqda Amudaryodan jan.da Hindukush tog'larigacha bo'lgan Tohariston yerlarini; ikkinchisi esa, Amudaryodan shim.da joylashgan Shim. Tohariston va Sug'd yerlarini o'z ichiga olgan. XI asr boshidan e'tiboran Movarounnahr istilohi hudud jihatdan ayrim manbalarda Sug'd va Xorazm, boshqalarida esa Sug'd va Shim. Tohariston yerlarini o'z ichiga olgan. Ma'no jihatdan esa bu atama endi Turkiston, ya'ni Qoraxoniylar davlati, keyinchalik esa Xorazmshohlar, Chig'atoiyalar, Temuriylar va Shayboniylar davlatlarining tarkibidagi ma'muriy birlikni anglatgan.

**2. Buyuk Karl haqida ma'lumot bering.** Buyuk Karl -franklar qiroli (768-yildan), imperator (800-yildan), karolinglar sulolasi uning nomi bilan atalgan. Uning bosqinchilik urushlari (773—774-yillarda Italiyadagi Langobard qirolligiga, 772—804 yillarda sakslar yeri va boshqalarga qarshi)

natijasida katta imperiya vujudga kelgan. B. K. ning olib borgan siyosati (cherkovga homiylik qilish, sud va harbiy islohotlar va boshqalar) G'arbiy Yevropada yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida muhim bosqich bo'lgan. B.K. ning imperiyasi uning vafotidan so'ng bir oz vaqt o'tgach, parchalanib ketgan. Buyuk Karl 742-yili tug'ilgan, u sulola asoschisi Pipin Pakananing o'g'li bo'lib, Franklar qirolligini 46 yil boshqargan. "Buyuk" nomi tarixchilar tomonidan 53 marotaba harbiy yurishlar qilganligi sabab berilgan. U yirik saltanat tuzadi. Karl haqida ko'plab hikoyalar, asarlar, afsonalar, rivoyatlar va qo'shiqlar yaratilgan. Uning ismidan "korol" ya'ni "qirol" unvoni kelib chiqqan. Buyuk Karl 773-yili german qabilasi langobardlarga qarshi jang boshlaydi, langobardlar qiroli Dezideriy mag'lub etiladi. Karlning jiyani Roland Arab xalifaligi istilo qilgan Ispaniyaga qarshi jangda halok bo'ladi. Reyn daryosining o'ng sohilida yashovchi sakslarga qarshi urushlar 30 yildan ortiq davom etadi. Bu urush Karl uchun ancha murakkab kechadi. Sakslar germanlarning Karlga bo'ysunmagan so'ngi yirik qabilasi bo'lgan. Ammo baribir franklarga bo'ysunganlar.

**3. "Urbanizatsiya" atamasiga izoh bering.** Urbanizatsiya (frans. urbanisation, ing . urbanization, lot. urbanus — shaharga mansub, urbs — shahar) — jamiyat hayotida shaharlar ro'lining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

#### **4-bilet**

**1. Ossuriya.** Ossuriya — Mesopotamiyaning shim.da, Dajla daryosi yuqori oqimi bo'ylarida qadimda mavjud bo'lgan davlat (miloddan avvalgi 2—7-asrlar). Ashshur (Assur) shahar davlati nomidan olingan. Ossuriya aholisi, asosan, somiy-akkad xalqlariga mansub bo'lgan. Miloddan avvalgi 18-asr boshida Ashshur yirik davlatning markazi edi. Keyinchalik Babil, 16—15-asrlarda Mitanni davlatlari qo'l ostiga o'tgan. 10-asr oxiri — 9-asrlarda Ossuriya podsholari Shim. Mesopotamiya va Ossuriyaning sharqidagi tog'li o'lkalarda o'z hokimiyatlarini tiklashga erishganlar. 679—672 yillarda O. Shim.da va Sharkda kimmeriyalar, skiflar va midiyaliklar bilan og'ir urushlar olib borgan. Miloddan avvalgi 8-asr oxiridan boshlab Ossuriyaga qarshi bo'lgan davlatlar (Babil, Elam, ba'zan Misr, Suriya, Finikiya, Falastin) va kabilalar (xaldey, arab va boshqalar) ittifoqi tuzilgandi. Uzoq muddatli urushdan so'ng Babil va Midiya ittifoqi Ossuriyani tor-mor keltirgan, uning asosiy shaharlarini vayron qilib, Ossuriya davlatini tugatgan (605-yil). Urush davrida Ossuriya zodagonlari yoppasiga qirib tashlangan, qolgan aholi Mesopotamiya oromiylari bilan aralashib ketgan.

**2. Pyotr I haqida ma'lumot bering.** Pyotr I (1672–1725)– rus podshosi (1682-yildan), Rossiyaning 1-imperatori (1721-yildan). Podsho Aleksey Mixaylovich (1629–76)ning kichik o'g'li. Rossiyaning davlat, harbiy va madaniyat arbobi, diplomat. Davlatni boshqarishda bir necha islohotlar o'tkazgan (senat, kollegiyalar, oliy davlat nazorati va siyosiy qidiruv organlari tuzilgan; cherkov davlatga bo'ysundirilgan; mamlakat gubernalarga bo'lingan; yangi poytaxt – Sankt-Peterburg qurilgan). Rossiyaning G'arbiy Yevropadagi ilg'or davlatlardan ortda qolganligiga barham berish uchun sanoat va savdo sohasida merkantilizm siyosati o'tkazgan (manufakturalar, metallurgiya, konchilik zavodlari, kemasozlik korxonalari, pristanlar, kanallar qurishga rahnamolik qilgan). 1695–96-yillarda Azov yurishlarida, 1700–21-yillarda Shimoliy urush va boshqalarda armiyani boshqargan, Noteburgni olishda (1702), Lesnaya daryosi (1708) va Poltava jangi (1709)da qo'shinlarga qo'mondon bo'lgan. Flot va muntazam armiya tuzishga rahbarlik qilgan. Mutlaq hokimiyat tizimining yirik mafkurachisi sifatida dvoryanlarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash va siyosiy mavqeiini mustahkamlashga yordam bergan. P.I tashabbusi bilan bir qancha o'quv yurtlari, FA ochilgan, diniy-slavyan alifbosi o'rniga grajdan alifbosi qabul qilingan va h.k. P.I islohtlari moddiy imkoniyatlar va odam kuchini qattiq ekspluatatsiya qilish, xalq ommasini ezish (jon solig'i va

boshqalar) hisobiga o'tkazilganki, natijada, bunga qarshi qo'zg'olonlar (Streletslar, 1698; Astraxan, 1705–06; Bulavin, 1707–09 va boshqalar) bo'lib hukumat tomonidan ayovsiz bostirilgan

**3. “Demobilizatsiya” atamasiga izoh bering.** Demobilizatsiya (de... va mobilizatsiya) — qurollikuchlarni va mamlakat iqtisodiyotini harbiy holatdan tinchlik holatiga o'tkazish.

### 5-bilet

**1. Xuroson.** Xuroson (fors. Xorâsân) — Eronning shimoli-sharqiy qismida joylashgan tarixiy viloyat. Xuroson atamasi Sososniylar davlati davrlaridan beri ma'lum. Parfiya podshohligining markazi (mil. av. 250 — mil. 224). Xuroson nomi sosoniylar davridan ma'lum. Xuroson 3-asrdan 18-asr o'rtalarigacha hozirgi Eronning shim.sharqiy qismi, Marv vohasi, hozirgi Turkmanistonning jan. qismi va Afg'onistonning shim. va shim.g'arbini o'z ichiga olgan. Mashhad, Nishopur, Marv, Balx, Hirot, Tuye, Saraxs, Obivard, Niso, Sabzavor Xurosonning muhim shaharlari bo'lgan. 7-asr o'rtalarida uni arablar egallagan. Arab xalifaligi tanazzulga uchragach, Xuroson Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Hulokuiylar, Kurtlar davlati tarkibiga kirgan (9 — 14-asrlar). 8-asrdan 13-asrning 20-yillarigacha Xuroson Yaqin va O'rta Sharqda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan o'lkalardan biri bo'lgan. U qo'shni davlatlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlari, mevalar, ipak, jun, mo'yna chiqargan. Shuningdek, Xurosonda kumush, qo'rg'oshin, mis va temir rudalari, oltin, oltingugurt, to'tiyo, margimush, marmar, malaxit va boshqa qazib chiqarilgan, to'qimachilik avj olgan. 1220- va 1223- yillarda Xurosonga mo'g'ullar hujum qilib, vayron etgan; aholisining ko'pchiligi qirib tashlangan. Shundan keyin Xuroson avvalgi mavqeiga chiqa olmagan. 14-asr oxirida Amir Temur Xurosonni o'z davlatiga qo'shib olgan, keyinchalik Shayboniylar, 1510 -1736-yillar Safaviylar davlatlariga tobe bo'lgan. Keyinchalik Xurosonning bir qismi (Hirot viloyati va Balx) Afg'onistonga, bir qismi Eronga qo'shilgan.

### 2. Ivan Grozniy haqida ma'lumot bering .

Ivan Grozniy (1530— 1584) — "Butun Rusning ulug' knyazi" (1533-y. dan), 1-rus podshosi (1547 y. dan). Vasilii III ning o'g'li. Mustabid hokim sifatida xalq uni "Grozniy" ("Dahshatli") laqabi bilan atagan. Ivan Grozniy 40-yillarning oxiridan tanlangan rada ishtirokida davlatni boshqargan. Uning davrida Zemskiy soborlar chaqirilgan; 1550-yil Sudebniki tuzilgan; boshqaruv va sud islohotlari o'tkazilgan; 1565-yilda oprichnina joriy etilgan; Angliya bilan savdo aloqalari o'rnatilgan (1553); Moskvada 1-bosmaxona qurilgan; Qozon (1552) va Astraxon (1556) xonliklari bo'ysundirilgan; Boltiq b'yiga chiqish maqsadida Livon urushi olib borilgan (1558—83); Sibirni bosib olish boshlangan (1581). Ivan Grozniyning ichki siyosati ommaviy qatl etishlar, dehqonlarni asoratga solishni kuchayishi bilan ajralib turadi.

**3. “Parij Kommunasi” atamasiga izoh bering.** Parij kommunasi (1871-y 18-mart-28 may) — Fransiya-Prussiya urushi (1870-71)da bonapartchilar rejimining mag'lubiyatga uchrashi, 3-respublika hukumatining siyosati Parij xalqining qo'zg'olon ko'tarishiga va A. Tyer rahbarligidagi Versalga qochib ketgan hukumatni ag'darib tashlanishiga olib kelgan (18-mart). 18-28 martda Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasi inqilobiy muvaqqat hukumat vazifa-sini bajargan. 28-martda “Parij Kommunasi” e'lon qilingan. Hukumat 2 fraksiyadan: "ko'pchilik" (asosan, blankistlar) va "ozchilik" (asosan, prudonistlar)dan iborat edi. “Parij Kommunasi” ham qonun chiqaruvchi, ham ijroiya organi bo'lgan. 21-mayda versalchilar Parijga kirganlar; 28-maygacha kommunalar barrikadalarda jang qilishgan.. Kommuna versalchilar tomonidan bostirilgan.

### 6-bilet

**1.Mesopotamiya.** Mesopotamiya (yun. (mezos) - "orasi", "o'rtasi" va (potamos) - "daryo", ya'ni "ikki daryo oralig'i") Tigr va Yevfrat daryolari orasidagi mintqa bo'lib, asosan hozirgi Iroq hamda shimoli-sharqiy Suriya, janubi-sharqiy Turkiya va g'arbiy Eron hududlariga mos keladi. Miloddan

avvalgi 4—3ming yillikda Mesopotamiya hududida ilk davlatlar (Ur, Uruk, Lagash va boshqalar) vujudga kelgan. Mesopotamiya baʼzan "tamaddun beshigi" deb ataladi, bunga sabab bu mintaqada Shumer, Akkad, Bobil va Ossuriya saltanatlari boʻlganligidir. Temir asrida Mesopotamiya Yangi Ossuriya va Yangi Bobil imperiyalari, keyinchalik Axamoniylar hukmronligi ostida boʻldi. VII asr Islom istilosigacha Sosoniylar tomonidan boshqarilgan bu hudud istilodan soʻng Iroq degan nom bilan ataladigan boʻldi.

**2. Amir Nasrulloxon haqida maʼlumot bering.** Nasrulloxon (1806-1860) — Buxoro amiri (1826 — 1860), mangʻitlarlardan Amir Haydarning oʻgʻli. Otasining hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. Amir Haydar vafotidan soʻng hokimiyat uchun kurashlarda akalari amir Husayn (1797-1826) va amir Umar (1826-yil) ni oradan koʻtarib, Buxoro taxtiga oʻtiradi (1826). Nasrulloxon oʻz hukmronligi davrida islom shariati koʻrsatmalariga qatʼiy amal qilgan. Nasrulloxon jasur va dovyurak kishi boʻlganligi bois unga "bahodir", "botir" unvonlari berilgan. Nasrulloxon davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida urugʻ va qavm boshliqlari boʻlgan koʻplab amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va gʻayratli kishilar bilan almashtirdi. 1837-yilda harbiy sohada islohotlar oʻtkazib, oʻz qoʻshinining jangovar holatini yaxshiladi. Nasrulloxon Xiva va Qoʻqon xonliklarini Buxoro atrofida birlashtirishga uringan. Nasrulloxon hukmronlik qilgan yillar Turkiston mintaqasida Rossiya-Angliya manfaatlari oʻzaro tʻqnashgan davr hisoblanadi. Nasrulloxon tomonidan va uning davrida Buxoroda Qozi Hasanxoʻja, Olimjonboy, Eshoni Pir, Mirzo Ubayd, Modorixon, Ismoilxoʻja (1829) Aliy Choʻbin, Mirzo Abdulgʻaffor, Tojiddin madrasalari (1860) qurildi, Xalifa Xudoydod meʼmoriy majmuasining qurilishi yakunlandi (1855). . Nasrulloxon Buxoroda dafn etilgan.

**3. "Shovinizm" atamasiga izoh bering.** Shovinizm [ Napoleon I bosqinchilik siyosatining muxlisi fransuz askari N.Shoven (Spailchop) nomidan] — millatchilikning oʻta agressiv shakli. Oʻzga millatlarni kamsitish, tahqirlash, oʻz millatini boshqa millatdan ustun qoʻyish, milliy kalondimogʻlik, milliy xudbinlik illatlarini oʻzida mujassam etadi.

## 7-bilet

**1. Urartu.** Urartu (ossuriycha atalishi; urartcha — Biaynili, Bibliyada — "Ararat podsholigi") — Gʻarbiy Osiyodagi qad. davlat. (mil. av. 9— 6-asrlar). Ravnaq topgan davrida Armaniston togʻliklarini (hozirgi Armanistonning butun hududi, Turkiya va Eronning bir qismi)ni qamragan. Aholisi — urartlar. Poytaxti — Tushpash. (hozirgi Turkiyadagi Vansh.) boʻlib, unda podsho Sarduri I davrida katta qurilish ishlari olib borilgan. Mil. av. 9-asr oxiri—8-asrning I yarmida Urartu davlati ravnaq topgan. Menua, Argishti I va Sarduri II podsholiklari davrida Urartu hududi ancha kengaygan. Urartuda qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Mil. av. 8-asr oʻrtasida Ossuriya podshosi Tiglatpalasar III (mil. av. 745—727) Urartu qoʻshinlarini bir necha marta magʻlubiyatga uchratgan va Urartu tarkibiga kiruvchi Shim. Mesopotamiya va Shim. Suriyani egallagan. Sʻngra Rusa I davrida Sargon II boshliq Ossuriya qoʻshinining yurishlari natijasida mamlakat xonavayron boʻlgan. Biroq 7-asrda U. Jan. Zakavkazyeda hali ham oʻz mavqeini saqlab qolgan edi. Rusa II (mil. av. 685—645) bu yerda yangi qalʼalar bunyod etgan (jumladan, Teyshebaini va boshqalar). Skifkimmeriy yollanma qoʻshini yordamida Urartu podsholari Frigiya podsholigini tormor qilganlar (mil. av. 676 y.). Midiya podsholigining kuchayishi Urartuni Ossuriya bilan yaqinlashtirgan. Biroq mil. av. 6-asr boshida Urartu Midiya tomonidan tormor etilgan va uning tarkibiga qoʻshib yuborilgan.

**2. Amir Olimxon haqida maʼlumot bering.** Amir Olimxon, Amir Sayd Olimxon (1881, Karmana — 1944.28.4, Kobul) — Buxoro amiri (1910-20), mangʻitlardan. Amir Abdulahadning oʻgʻli. Peterburgdagi Nikolayev kadet (pajlar) korpusida taʼlim olgan (1893-96). 1898-yil Qarshi, soʻngra valiaxd sifatida Karmana beklklariga hokim boʻlgan. Otasi vafotidan soʻng , Buxoro taxtiga oʻtirgan (1910-yil 24-dek.). Olimxon davrida Buxoro amirligining Rossiyaga qaramligi yanada

kuchaydi. Taraqqiyparvar kuchlar, shuningdek, Yosh buxoroliklar qattiq ta'qib qilindi. 1920'yil avg .da Buxoro bosqini natijasida amirlik tuzumi ag'darib tashlandi. Sentabr oyining o'rtalarida Olimxon Sharqiy Buxoroga borib, Buxoro xalqining bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan mustaqillik kurashiga rahbarlik qilishga urindi. Olimxon Hisor viloyatini o'ziga qarorgoh qilib, 6 oy davomida qizil askarlarga karshi kurashgan. Olimxonni Kobulda Afg'oniston amiri Omonullaxon qabul qilib, doimiy yashashi uchun unga Kal'ai Fotuda maxsus qarorgoh ajratib beradi. U Kobulda yashasa ham Buxorodagi ozodlik harakatiga g'oyaviy jihatdan rahbarlik qilishda davom etdi, ko'rboshilar va ulamolarga turli maktublar va qimmatbaho sovg'alar jo'natib, ularni kurashga ilxomlantirgan. Olimxon Kobulda o'zining esdaliklarini yozib tugallaydi. Umri oxirida ko'zi ojizlanib qoladi, og'ir dardga chalinadi. Uzoq davom etgan xastalikdan so'ng u Kal'ai Fotuda vafot etadi. Kobul atrofidagi Shahidoni islom (Islom shahidlari) qabristoniga dafn etilgan. Olimxonning xotiralari Parijda fransuz tilida (1929), keyinchalik G'arbda fors tilida, O'zbekistonda o'zbek va rus tillarida (1991), Tojikistonda tojik tilida (1992) alohida kitob sifatida chop qilingan. Olimxon hukmronligi davrida Buxoroda Olimxon madrasasi qurilgan, Sitorai Mohi Xosa saroyini qurish yakunlangan.

**3. "To'rtlar ittifoqi" atamasiga izoh bering.** 1915-yil 15-sentabrda tashkil topgan. "To'rtlar ittifoqi" ga quyidagi 4ta davlat kirgan: Germaniya, Italiya, Avstriya, Turkiya.

## 8-bilet

### 1. Fors viloyati.

Fors — Eronning janubidagi tarixiy viloyat. Qadimda Persida (yunoncha), Porso (qad. forsha; arabcha shakli — Fors). 7-asrda Forsni arablar bosib olib, uning bosh shahri Istaxrni vayron qilishgan. 7-asr oxirlarida F. — xorijiylar harakati tarqalgan hudud. Fors Buvayhiylar, Solg'uriylar, Muzaffariylar, Zendlar davlatining o'zagini tashkil etgan. Bu davlatlarning markazi Sheroz shahri bo'lgan.

**2. Mirzo Ulug'bek haqida ma'lumot bering.** Mirzo Ulug'bek Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzoning farzandi edi. u 1394-yil tug'ulgan. Ulug'bekka Mavlono Ahmad va qozizoda Rumiylar ustozlik qilgan. Ulug'bek movrounnahrda 40 yil hukmronlik qilgan. "Ulug'bek ziji" asarinin yaratgan. Asarda 1018 ta yulduzning o'rni shrhlangan, Tarix faiga oid "To'rt ulus Tarixi" asaarini yaratdi. Buxoro, Samarqand, Gijduvon shaharlarida madras barpo ettiradi. U Ulu'bek rasadxonasi(1424- 1429) Ulug'bek madrasasi esa 1420-yilda Samarqandda qurilgan. 1994-yil Ulug'bek tavalludining 600-yilligi nishonlandi. 2009-yil BMT tomonidan xalqaro Astronomiya yili deb Elon qilingan. Ulug'bek 1449-yil o'z o'g'li Abdulatif tomonidan o'ldirilgn.

**3. "Panturkizm" atamasiga izoh bering.** Panturkizm (pan... va turk) -turkiy xalqlarni birlashtirish g'oyasiga Rossiya va Angliya imperiyalari, shuningdek, SSSR tomonidan berilgan rasmiy nom.

## 9-bilet

**1. Baqtriya.** Baqtriya, Baqtriyona, Baxtar zamin Baktriya — Amudaryoning yuqori va o'rta oqimidagi tarixiy viloyat. Asosan hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning jan. viloyatlari hamda Afg'onistonning shim. qismini o'z ichiga olgan. Shim.da Sug'd, jan.da va jan.-sharqda Araxosiya, Gandhara, g'arbda Marg'iyona bilan chegaralangan. Markaziy shahri Baqtra (Zariaspa) bo'lgan. Baqtriya mil. avv. 6-4-asrlarda Ahamoniylar, Aleksandr (Iskandar), Salavkiylar saltanatlari, so'ngra mil. avv. 3-asr o'rtasidan Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga kirgan; mil. avv. 2-asrda toharlar tomonidan bosib olingach, Tohariston deb atala boshlagan. Baqtriyaning o'tmishda "Ming bir shahar mamlakati" deb atalganligi unda shaharlarning ko'p bo'lganligidan guvohlik beradi. Baqtriya da asosan oromiy yozuvidan va mahalliy tillardan foydalanilgan. Bu davrda metall ishlash sanoati

(Dalvarzintepa va boshqalar), me'morlik (Kuchuk-tepa, Hal'aimir va boshqalar), xalq og'zaki ijodiyoti taraqqiy etgan. Baqtriya madaniyati, ayniqsa mil.avv. ming yillikning so'nggi asrlarida yuksalgan (Xotin-rabod va boshqalar). Mahalliy xalq madaniyati yunon, hind va fors madaniyatlari an'analari ta'sirida ham boyigan. Mil. avv. 2-1-asrlarda ipakchilik va pillachilik rivojlangan (yana q. Sopollitepa). Bu davrga oid me'morlik yodgorliklari, numizmatika materiallari, tasviriy va amaliy san'at namunalari Termiz, Zar tepa, Dalvarzintepa. Qal'a-imir, Xolchayon va boshqa joylardan topilgan. Jan. B.dagi Bagram, Balx, Dashli, Dilbarjin, Oyxonim, Oltindilsrte-pa, Xadda (Afg'oniston) va Taksila (Pokiston)da olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu hakdagi ma'lumotlarni yanada boyitdi.

**2. Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ma'lumot bering.** Z.M.Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug'ilgan. Otasi Umarshayx Mirzo bo'lgan. Umarshayx Mirzo 1494-yilda vafot etadi hokimiyat 12 yoshli Boburga qoladi. Bobur Samarqandga 4marta yurish qiladi. 1496,1497,1500,1511-yillarda. Bobur 1501- yildagi mag'lubiyatidan so'ng Kobulga ketadi. 1512-yilda Ubaydulla sultondan mag'lub bo'lib kobulga ketadi. Kobulni o'gli Kamron Mirzoga qoldirib o'zi Hindistonga yurish qiladi 1526-yilda Dehlini egallaydi. 1526-yili 27-aprelda Bobur nomiga xutba o'qiladi. Bobur 1530-yili 26-dekabrda 47 yoshida vafot etadi. Boburni Bog'I Oromga dafn etadi. Z.M.Bobur Mubayyin Turkiy Devon Boburnoma asarlarini yozadi. Boburnoma asari 1493-1529- yilgi voqealar haqida bayon etilgan. Boburning 510 yilligi 1993-yili keng nishonlandi.

**3. "Gimnaziya" atamasiga izoh bering.** Gimnaziya — MDH da va ba'zi Yevropa mamlakatlarida mavjud bo'lgan chuqur bilim beradigan maktab turi. „Gimnaziya“ so'zi grekcha (gymnasion) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, qadimiy Gretsiyada yoshlar aqliy va jismoniy bilim oladigan joylar shu nom bilan atalgan. Zamonoviy ingliz tilida gymnasium so'zi asosan jismoniy mashq qiladigan joy ma'nosida qo'llaniladi.

## 10-bilet

### 1. So'g'diyona.

Sug'diyona davlati. Miloddan avvalgi VII asrda Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida Sug'diyona (Sug'd) davlati tashkil topadi. Sug'diyona davlati ning poytaxti Samarqand shahri bo'lgan. Buxoro, Kesh, Naxshab Sug'diyo na ning yirik shaharlari hisoblangan. Aholi hayotida bayramlarni nishonlash udumi shakllangan. Har yili 21 mart da Navro'z bayramini nishonlash milliy an'anaga aylangan. Navro'z bayramlarida milliy o'yinlar va taomlar namoyish qilingan, sumalak hamda «qo'sh oshi» tayyorlash an'anaga aylangan. Yerlarni shudgorlash, ekinlar ekish ishlari boshlangan.

**2. Muhammad Shayboniyxon haqida ma'lumot bering.** Muhammad Shayboniy (1451-yil – 1510-yil 12-dekabr, Marv) — taniqli o'zbek shoiri, davlat arbobi, o'zbekxonlar sulolasining asoschisi, „hazrati imomuz-zamon xalifatur-rahmon“ (zamona imomi va xalifasi) unvoniga erishgan. Muhammad Shayboniy Shayboniy deb ataluvchi yirik sulolaning asoschisidir. Muhammad Shayboniy Abulxayrxonning nabirasi, Shohbudog' sultonning o'g'li. Abulxayrxon unga „Shohbaxt“ deb laqab qo'ygan. Otasining erta vafotidan so'ng, bobosining qaramog'ida qolgan Sulton Muxammad Shaybon Boyshayx otalig'ida voyaga yetgan. U 15-asr 80-yillarida Abulxayrxon vafotidan so'ng Dashti Qipchoqning asosiy hududida o'z hukmronligini o'rnatmoqchi bo'lgan. Shayboniy 1490-yillardan o'zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan Temuriylar hududi bo'lgan Movarounnaxrda ham o'z hukmronligini o'rnatish uchun harakat boshlagan. 15-asr oxiri — 16-asr boshlarida Movarounnaxrda qilgan yurishlari natijasida hokimiyat boshqaruvi uning qo'liga o'tgan. Shayboniy Turkistonning Sig'noq, Sabron, Yassi shaharlarini ham o'z qo'l ostiga kiritgan. 1504-yil Hisor, Qunduz, Badaxshon, Balx, 1505-yilda Xorazm, 1507-yilda Hirot ham Shayboniy qo'l ostiga o'tgan. Keyinroq Eronning Mashhad va Tuye shaharlarini ham egallagan. 1510-yilda Marv yaqinidagi Mahmudobod qishlog'ida Eron



shohi Ismoil I Safaviyning 12 ming kishilik askari bilan Shayboniy qo'shini o'rtasidagi jangda uning qo'shinlari mag'lubiyatga uchrigan va shahrining o'zi ham halok bo'lgan. Uning boshsiz tanasi Samarqanddagi Baland Sufaga dafn qilingan. Baland Sufa Registon maydonida Tillakori va Sherdor madrasalari o'rtasidagi burchakda joylashgan bo'lib, bu yerga keyinchalik boshqa shayboniylar ham dafn etilgan.

**3. “Manifest” atamasiga izoh bering.** Manifest(lot)- hukumatning juda muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojati.

### 11-bilet

**1. Parfiya. Parfiya,** Parfiya podsholigi — mil. avv. taxminan 250-yilda Kaspiy dengizining jan. va jan.-sharqiy tomonida vujudga kelgan qad. davlat. Mil. avv. I asr o'rtalarida Mesopotamiyadan Hindistongacha bo'lgan hududni o'ziga bo'ysundirgan. Parfiya milodiy 3-asrning 20-yillarigacha mavjud bo'lgan. Mil. avv. taxminan 250-yil saklarning ko'chmanchi parnlar (daxlar) qabilasi Arshak (arshakiylar sulolasi asoschisi) boshchiligida Salavkiylar davlatidan ajrab chiqqan Parfiyo-na yoki Parfiya satrapiyasiga bostirib kirganlar va Parfiyani, so'ngra qo'shni Girkaniya viloyatini ishg'ol etganlar. . Rim tarixchisi Pompey Trog: «Ularning qo'shinlari qullardan tashkil topgan, qullar olomoni ko'payib bormoqda, chunki hech kim ularni ozod etolmaydi, hammasi qullar bo'lib tug'iladi. Ular shu qullarni o'z farzandlaridek ko'rib tarbiyalaydilar, ot minishga va o'q-yoy otishga o'rgatadilar»,– deb yozgan ekan. Parfiyonlar Rim sarkardasi Antoniyya qarshi 50 000 suvoriy tayyorlaganlar, shulardan 400 suvoriy erkin kishilardan, qolgani esa qullardan bo'lgan. Parfiya xo'jaligining asosini dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etgan. Parfiya aholisi Murg'ob, Tajan, Atrok, Karun, Kerxa kabi daryo va soy bo'ylaridagi unumdor yerlarga sholi, sabzi, turp, sholg'om, qovun, tarvuz, qovoq ekib parvarish qilganlar. Ular olma, anor, anjir, o'rik, uzum va boshqa mevali daraxtlar ekib. Bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar.

**2. Abdullaxon II haqida ma'lumot bering.** Abdullaxon II (to'liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abulxayrxon) (1534-1598 Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) – o'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583–98), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton Karmana va Miyonkol hokimi (1512-13-yilda) bo'lgan. Otasi Iskandar sulton o'g'li tug'ilgan paytda Ofarinkentni, keyinchalik, aftidan aka-ukalaridan biri vafot etgach, Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan qattiq kurash olib borgan. Toshkent hokimi Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) bilan Koson yonida (1548), Mo'g'uliston xoni Abdurrashidxon va shayboniylardan Do'stum sultonlar qo'shiniga qarshi Forob yonida (1554) jang qilgan. Yosh Abdulla sulton o'zining hukmdor sifatidagi butun g'ayrat-shijoatini 1551-yil Karmanada namoyish etgan; viloyatga Toshkentdan Navro'z Ahmadxon va Samarqanddan Abdullatifxon hujum qilganlar, Iskandar sulton Amudaryo ortiga qochgan. Abdulla sulton otasi vazifasini o'z zimmasiga olib bu hujumni muvaffaqiyatli qaytargan. Keyingi yillarda (1552–56) o'z mulkini g'arbga – Buxoro tomonga va janubiy-sharq – Qarshi va Shahrisabz tomonga kengaytirishga intilgan. Bu sa'y-harakat dastlab muvaffaqiyatsiz chiqqan, hatto 1556-yil u ota meros mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo'lgan. U amakisi, Balx hokimi Pirmuhammaddan harbiy yordam olib va piri Jo'ybor xojalaridan Xoja Muhammad Islom ko'magida Navro'z Ahmadxon, keyinchalik uning o'g'illari Darveshxon va Bobo sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib borgan. Boburiylar ham Badaxshon, Shom, Afg'oniston va Xuroson uchun Abdullaxon II ga qarshi kurashganlar. Abdullaxon II bunga qarshi Sind(1583), Kashmir (1586)ni egallab, davlatning janubiy. chegaralarini mustahkamlagan.

**3. “Missiya” atamasiga izoh bering.** Missiya (lot. missio — jo’natmoq) — muayyan topshiriq bilan boshqa mamlakatga yuborilgan vakillar; 2) bir davlatning boshqa davlatdagi (elchixonadan farqli ravishda) vakili tomonidan boshqariladigan doimiy diplomatik vakolatxonasi.

### 12-bilet

**1. Vizantiya.** Vizantiya davlati .Imperator Feodosiyning o’g’illari 395-yilda davlatni 2 ga bo’lib olishadi. Ulardan biri poytaxti Konstantinopol bo’lgan.Bu davlat hududiga bolqon, misr, suriya, falastin, kavkaz, kichik osiyo,krit va kibr orollari kirgan.Davlat tili yunon tili.6 asrda imperiyani Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Edessa shaharlari gullab yashnagan.Konstantinopol osiyo va yevropani bog’laydigan oltin ko’prik hisoblangan.Vizantiya oltin puli nomesma.Vizantiya imperiyasini Vasilevs (yunoncha podsho) boshqargan.Maslahat organi sinklit (lotincha senat) bo’lgan.Vizantiya imperiyasi o’z qudrati cho’qqisiga Yustinian I davriga to’g’ri keladi (527-565).Xotini Feadora.

**2. Husayn Boyqaro haqida ma’lumot bering.** Husayn Boyqaro (Husayniy) (1438-yil, Hirot—1506-yil, 4-may, Bobo-Ilohi, Hirot yaqinida) - taniqli shoir va davlat arbobi. Hirot yaqinida tug’ilgan. 1469-yildan umrining oxirigacha Xuroson podshohi. Uning hukmdorligi yillarida iqtisodiy va madaniy hayot yaxshilangan. Navoiyning maktabdosh do’sti va homiysi.

Husayn Boyqaro, Husayniy (to’liq nomi Husayn ibn Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaro) (1438—Hirot — 1506) — Xuroson hukmdori (1469-1506), shoir. 15-asr o’zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan. Temuriylardan Umarshayx mirzoning evarasi.

Onasi Feruzabegim temuriylardan Mironshohning nabirasi. Husayn Boyqaro, Bobur ta’riflaganidek, ikki tomonlama ulug’ („karim ut-tarafayn“) bo’lgan. 1458-yilda 300 kishilik qo’shin bilan Sulton Sanjarning yaqinlaridan Bobo Hasan qo’shinini yengib, Niso viloyati, so’ng Astrobodni egallagan. 1459-yilda Husayn Boyqaro huzuriga Abdurazzoq Samarqandiy elchi bo’lib kelgan. 1460-yilda vaziyat taqozosi bilan Husayn Boyqaro Astrobodni tashlab chiqishga majbur bo’lgan. Ammo 1461-yil shaharni qaytarib olgan. Shu yil yoz oxirlarida Hirotga yurish qilgan. Biroq Abu Said Mirzoga bas kelolmay, orqaga chekingan, buning ustiga, Astroboddan ham mahrum bo’lgan. 1463-1464-yillarda Urganch, Xiva, Hazorasp, Tirsakni qo’lga kiritgan. Shu yerda kuch to’plab, yana Xurosonga hujum qilgan. Ammo Abu Said qo’shinlari Xivani egallay. Husayn Boyqaro uni qaytarib oladi. 1467-yilda yana Urganchni egallaydi. Yurak xastaligidan vafot etgan Husayn Boyqaro o’zi qurdirgan madrasa ichidagi maqbaraga dafn etilgan. Hozir maqbara vayron bo’lgan, qabr va uning ustiga o’rnatilgan „Sangi haft qalam“ saqlanib qolgan.

**3.“Konservativ” atamasiga izoh bering.** Konservativizm — ijtimoiy va madaniy hayotda an’ana va vorislik g’oyasiga tayanuvchi xilma-xil g’oyaviy, siyosiy va madaniy oqimlar majmui. Tarixda turli konservativizm shakllarda namoyon bo’lgan, lekin, umuman olganda, mavjud va barqaror ijtimoiy tizimlar hamda me’yorlarga moyillik, inqilob va keskin islohotlarni qabul qilmaslik — konservativizmga xos asosiy xususiyat hisoblangan.

### 13-bilet

**1. Oltin O’rda.** Oltin o’rda, Jo’ji ulusi 13-asrning 40-yillari boshida Jo’jixonning o’g’li Botuxon (1238—1255) tomonidan asos solingan davlat. 1224-yil Jo’ji ulusi Xorazm, Shimoliy Kavkazdan iborat edi. 1236—40 yillarda Botuxonning yurishlari natijasida Volga bulg’orlari yurti, Dashti Qipchoq, Qrim, G’arbiy Sibir, Oltin O’rdaga qo’shib olindi. Rus knyazlari Oltin O’rdaga qaram bo’lib, xiroj to’lab turganlar. Rus manbalarida bu davlat Oltin O’rda, Sharq manbalarida Jo’ji ulusi deb atalgan. Qo’shinlarga tumanbegi, no’yon (amir), yuzboshilar qo’mondonlik qilganlar. Oltin

o'rdi Jo'jining 14 nafar o'g'lining 13 ulusidan iborat edi. Ular o'z uluslarini mustaqil boshqarishga intilganlar. Amir Temurning 1389, 1391, 1395—96 y.lari To'xtamishga qarshi yurishlari Oltin o'rdani holdan toydirdi. Idiqu Oltin o'rdani tiklashga harakat qildi, natija bermadi. 15-asrning 20-yillarida Sibir xonligi, 40-y. No'g'ay O'rda, 1438 y. Qozon xonligi, 1443 y. Qrim xonligi, 60-y.larda Qozoq xonligi tashkil topdi. 1480 y. Ahmad Rusni b'ysundirishga urindi. 16-asr boshlarida Oltin o'rdi quladi.

**2. Muhammad Rahimxon I haqida ma'lumot bering.** Muhammad Rahimxon I – Xiva xoni. Qo'ng'irotlar sulolasidan. To'liq ismi Muhammad Rahimxon ibn Avaz inoq ibn Muhammad Amin inoq. Akasi Eltuzarxon vafotidan keyin taxtga o'tirgan (1806-yil). Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini birlashtirishda ijobiy natijalarga erishgan; bir qancha siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlar o'tkazgan. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) ta'sis etilgan. Muhammad Rahimxon I Orol bo'yi qoraqalpoqlarini bo'ysundirish uchun bir necha marta yurish qilib, 1811-yilda To'ramurod so'fni yengib xonlikni mustahkamlagan. 1812-1818-yillar davomida Sirdaryo bo'yi qozoqlari va Marvdagi taka turkmanlar ustiga yurish qilib, ularni xonlikka qo'shib olgan. Bu g'alabalar Xiva xonligining mavqeini mustahkamlab, uni mustaqil qudratli davlatga aylantirgan. 1822-yilda Marv ustidan hukmronligini o'rnatdi. 1823-1824-yillarda Buxoro amirligiga tegishli Qoqishtivon, Og'or va Poykend qal'alariga talonchilik yurishlarini qilgan. Buxoro amiri Haydar bilan sulh tuzgan (1825-yil). Muhammad Rahimxon I davrida Dashti Qipchoq, Xuroson Xiva xonligiga soliq to'lab turgan. Xonlik hududi janubda Xuroson, Shimolda Orol dengizi va Sirdaryoning quyi oqimidagi yerlar, sharqda Buxoro amirligiga tutash hududlar, g'arbda Kaspiy dengizi qirg'oqlarigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Muhammad Rahimxon I o'zi qurdirgan Pahlavon Mahmud maqbarasidagi katta xonaqohning to'riga dafn etilgan. Rahimxon I arab, fors tillarini bilgan. Ilm ahliga homiylik qilgan. Olim, shoir va donishmandlar bilan suhbatlar o'tkazib turgan. Munisga Eltuzarxon davrida boshlangan "Firdavs-ul-iqbol" asarini davom ettirishga sharoit yaratib bergan. 1813-yilda Munisga "Ravzat-us-safo" asarini tarjimasini topshirgan. Mamlakatda bir qancha kanallar qazdirib obodonlashtirishga e'tibor bergan. Arkda zarbxona tashkil qilib oltin va kumush tangalar chiqargan. Muhammad Rahimxon I davrida ichkilik va bangilik taqiqlangan. Pahlavon Mahmud maqbarasi qayta qurilgan. Xivada bir qancha madrasa va masjidlar qurilgan. Bojxona va boshqa muassasalar ishga tushgan.

**3. "Federatsiya" atamasiga izoh bering.** Federatsiya (so'nggi lot. foederatio — birlashma, uyushma) — davlat tuzilishi shakli; yuridik jihatdan muayyan siyosiy mustaqilligi bo'lgan davlat tuzilmalaridan tashkil topgan murakkab (uyushma) davlat.

#### 14-bilet

**1. Dashti Qipchoq.** Dashti qipchoq, Qipchoq dashti — Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yon bag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar yoyilgan dashtlarni 11-15-asrlarga oid arab va fors manbalaridagi nomi. " Dashti qipchoq " atamasini dastlab Nosir Hisrav (11-asr) qo'llagan. Bu davrda qipchoqlar Irtish daryosi sohillaridan g'arbga tomon ko'chib (1030 y.) Xorazmga qo'shni bo'lishgan va hozirgi Qozog'iston hududi, shuningdek, jan. rus dashtlarini egallashgan. Dashti qipchoq aholisi sharq manbalarida — qipchoklar, rus solnomalarida — polovetslar, Vizantiya xronikalarida — kumanlar, venger manbalarida kunlar deb atalgan. Dashti qipchoq 2 qism — Sharqiy va G'arbiy qismdan iborat bo'lib, Yoyiq (Ural) daryosi ularning chegarasi sanalgan. G'arbiy qism Yoyiq va Itil (Volga) daryosidan to Dneprgacha b'lgan hududdan iborat bo'lgan. 13-asrda Dashti qipchoqni mog'ullar bosib olib, tarixda Jo'ji ulusi nomi bilan mashhur Oltin O'rdi davlatini barpo etganlar. Dashti qipchoqning asosiy aholisi ko'chmanchi va yarim o'troq bo'lib, chorvachilik va ovchilik, daryo va ko'l yoqalarida yashagan aholi dehqonchilik, shaharlari (Saroy Botu, Saroy Berka, O'rdi Bozor, Sig'noq, Arquq) dagi aholi esa hunarmandchilik

va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. 16—18-asrlarda Movarounnahr tarixshunosligida " Dashti qipchoq " atamasi uning sharqiy qismi (hoz. Qozog'iston) ni anglatgan.

**2. Chingizxon haqida ma'lumot bering.** Chingizxon (asl ismi Temujin, Temuchin) (taxminan 1155-1227) — Mo'g'ullar davlati asoschisi, sarkarda. Mo'g'ul qabilalari ittifoqi — tayjiutlar sardori Yasugay bahodirning O'elun Fujin (xotun)dan tug'ilgan to'ng'ich farzandi. 13 yoshida otasidan yetim qolgan Chingizxon. 27 yil davomida bir qancha urug' va qabilalarni tayjiutlar atrofida birlashtirish maqsadida harbiy harakatlar olib borgan. 1206 yil mo'g'ul aslzodalari, no'yonlari ishtirokida buyuk qurultoyda "chingiz" (tengiz — dengiz, okean) unvoni bilan sarafroz etiladi (Ulug'xon ma'nosida) va barcha qabila, urug', elatlarning buyuk xoni deb e'lon qilinadi. Davlatning ichki va tashqi siyosatini tartibga solishda Chingizxon tomonidan e'lon qilingan qonunlar to'plami — yaso (yasoq) muhim ro'l o'ynaydi. Ming kishilik shaxsiy gvardiya hamda yuz ming jangchidan iborat otliq armiyani shakllantirgan Chingizxon Sibirdagi bir nechta qabila va elatlarni (1207), Shimoliy Xitoy (1211-15), O'rta Osiyoni (1219—21), Xuroson, Eronni (1221—24) o'z tasarrufiga kiritadi. Mo'g'ullar tomonidan zabt etilgan hududlar vayron qilingan, aholisi qirib tashlangan, qullikka mahkum etilgan. 1224-yil Chingizxon Mo'g'ullar davlatini 4 o'g'li — Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy va Tulilarga taqsimlab bergan. Shimoliy Xitoydagi tangut qabilalarining Sisya davlati (10—13-asrlar) ga qarshi yurish qilgan vaqtida Chingizxon og'ir dard tufayli vafot etadi. Uni Mo'g'ulistondagi Burxon—Xaldun tog' etagida dafn etishadi.

**3. "Ekspluatatsiya" atamasiga izoh bering.** "Ekspluatatsiya" lotincha majburiy mehnatga safarbarlik degan ma'noda.

### 15-bilet

**1. Shosh.** Shoshtepaning qadimgi aholisi chorvachilik (qoramolchilik, yilqichilik, qo'ychilik hamda tuyachilik) bilan shug'ullangan. Qadimgi shoshtepaliklar jez va temirdan qurol-yarog' va asboblarni yasashni, kulolchilik hamda to'qimachilikni yaxshi bilgan. Shubhasiz, bu qishloqlarda, keyinchalik Toshkent vohasida shahar madaniyati shakllanib, qadimgi Toshkentning asta-sekin qad ko'tarishiga zamin bo'ldi. Mil. avv. 2—1-asrlarda Shoshtepada qadimgi shahar belgilari paydo bo'ldi. Qadimgi qishloq xarobalari ustida atrofi qalin aylanma devor bilan o'rab olingan doira shaklidagi qal'a (qo'rg'on) qad ko'tardi. Shoshtepadagi arxeologik obidalar shaharning mustahkam mudofaa devori, hashamatli me'moriy majmuoti, hunarmandchilik buyumlari, xatsavod va savdodan dalolat beruvchi topilmalar milod bo'sag'asida Toshkent vohasida shahar madaniyati rivojlanib, Shoshtepadagi qadimgi qishloq shahar qiyofasini o'z boshlaganini ko'rsatadi. Shoshtepani o'rganish Toshkent hududidan shahar madaniyati tarixi huddi shu davrdan boshlangan, ya'ni uning yoshi 23 asrdan kam emas deb baholashga imkon berdi.

**2. Doro I haqida ma'lumot bering.** Doro I (mil.avv. 522-486 yillar) podshohligining dastlabki yillarida Bobil, Misr, Elam, Turon va boshqa mamlakatlarda boshlangan qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostiradi. Doro I itoat ettirilgan mamlakatlarda biroz osoyishtalik o'rnatgach, bir qator islohotlar o'tkazishga kirishadi. U mamlakatni 20 ta satraplikka — viloyatga bo'lib, ularning har biriga alohida noib tayinlaydi. Mamlakat viloyatlari o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash uchun tosh yotqizilgan nshoh yo'llari" qurilgan. Bu yo'llar Pasargadadan mamlakatning turli burchaklariga tarmoqlanib ketgan edi, yo'llarda, bekatlar, karvonsaroylar, korizlar qurilib, ularni otliq soqchilar qo'riqlab turgan. Erondan tashqaridagi tobe mamlakatlardan xiroj solig'i -undirilgan. Doro I Misr, Milet, Bobil, Elam, Turon va boshqa joylarda ko'tarilgan isyonlarni shafqatsizlik bilan bostirgan va isyonchilarni jazolagan. Doro I podshohligining so'nggi yillarida eroniylar Frakiya va Makedoniyani bosib olganlar, Yunonistondagi Afma va Sparta eroniylarga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Sharqda eroniylar Hind daryosining o'rta va quyi oqimidagi yerlarni bosib olganlar. Miloddan avvalgi 486-yili Misrda eroniylarga qarshi qo'zg'olon boshlanadi. Doro I qo'zg'olonni bostirishga ulgurmay

miloddan avvalgi 486- yili 64 yoshida vafot etadi. Doro 1 vafot etgach, taxtga uning o'g'li Kserks o'tiradi. U Eronda miloddan avvalgi 486-yildan miloddan avvalgi 465- yilgacha podsholik qilgan.

**3. “Duma” atamasiga izoh bering.** Duma (ruscha-o'ylash, fikrlamoq) - Rossiya imperiyasining qonun chiqaruvchi hokimiyati, shahar dumasi – shaharning o'zini-o'zi boshqarish organi.

### 16-bilet

**1. Davan.** Davan (xitoycha Dayuandan olingan) — Farg'ona vodiysidagi qad. davlat. Mil. avv. 2—1-asrlardagi Xitoy manbalarida keng, obod, boy mamlakat. Davan haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Davan shahar va voha hokimlarining erkin ittifoqidan iborat davlat edi. Ulug' hukmdor qarorgohi Gushan (hozirgi O'zgan shahri deb taxmin etiladi)da bo'lgan. Podsho hokimiyati qabila zodagonlaridan iborat oqsoqollar kengashi tomonidan cheklab qo'yilgan. Oliy kengash hukmdorni podsholikdan tushirishi, hatto o'lim jazosiga hukm qilishi mumkin bo'lgan. Davan atamasi tarixiy adabiyotlarda mil. 3-asrgacha uchraydi. So'ngra Davan o'rniga "Boxan" va "Polona" (mil. 5-asr) atamalari uchrab muarrixlar ushbu atamalar qad. Davanga moye keladi deb qayd etib o'tganlar. Xitoyliklar Davan deb nomi toharlar (Taxwar) bilan bog'liq bo'lgan mamlakatni atashgan degan fikr bor. Mil. avv. 2-asr oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra, Davan aholisi 300 ming kishini tashkil qilgan, Davanliklar ko'zlari kirtaygan, qalin soqolli xalq bo'lib, savdo-sotiq ishlarida mohirliklari bilan nom chiqarishgan. Davanda xotin-qizlar izzat-ikrom qilingan. Davan da yetishtirilgan "osmon tulporlari" — arg'umoqlar Sharqda mashhur bo'lgan. Mil. avv, 104-101 yillarda Xitoy askarlari Davanga ikki bor hujum qilganlar. 1-hujum Xitoy askarlarining mag'lubiyati bilan tamom bo'lgan, chunki ular istehkomga aylantirilgan qishloqlarning qarshiligini sindirish uchun o'zlik qilganlar. Xitoyliklar 60 ming kishilik katta qo'shin bilan ikkinchi marta hujum qilib, 101-yilda Ershi shahrini qamal etishgan.

**2. Jaloliddin Manguberdi haqida ma'lumot bering.** Jaloliddin Manguberdi (to'liq ismi — Jaloliddin Abulmuzaffar Manguberdi ibn Muhammad) (1198—1231) — Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220-yildan), Alovuddin Muhammad II ning to'ng'ich o'g'li. U 33 yil umr ko'radi va uni 11 yili jang ichida o'tadi. Onasi — Oychechak turkman kanizaklardan bo'lgan. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo'lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib "Manguberdi" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan (1215). Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan. Chingizxon katta qo'shin to'plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi otlangan. Fapdiz qal'asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo'shinining ilg'orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo'shini Jaloliddin Manguberdini daryodan utishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo'lgan tengsiz jangda (qarang Sind daryosi bo'yidagi jang) mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan Sindning o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketdi (Bu cho'l hozirda ham Cho'li Jaloliy deb ataladi). Chingizxon Jaloliddin Manguberdining bu jasoratidan hayratda qolib, o'z o'g'illariga qarab: "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim!", degan. Mayofariqin viloyatidagi qishloqlardan birida mo'g'ullar tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberdining oz sonli qo'shinini tor-mor keltiradilar, Jaloliddin Manguberdini o'zi esa ta'qibdan qutulib Kurdiston tog'lariga chiqib ketgan. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo'lga asir tushib, fojiali ravishda halok bo'lgan. Jaloliddin o'ta qat'iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o'zini yo'qotib qo'ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi".

**3. “Muvaqqat” atamasiga izoh bering.** Muvaqqat (arabcha) - Vaqtincha, muayyan muddatga tuzilgan hukumat. Muvaqqat hukumat (Rossiyada) — imperator Nikolay II taxtdan ag'darilgandan so'ng barpo etilgan birinchi demokratik hukumat.'

### 17-bilet

**1. Qangʻ.** Qangʻ davlati, Qanhxa (qad. xitoy manbalarida Kangkiya, zamonaviy oʻqilishda Kangjyuy, rus adabiyotida Kangyuy) — qadimda Sirdaryoning oʻrta havzasida mavjud boʻlgan davlat (mil. av. 3 — mil. 5-asr oʻrtalari). Ayrim adabiyotlarda ushbu davlat aholisi ham uning nomlari bilan ataladi. K. Shoniyozov fikricha, Qangʻ sharqda Fargʻona (Davan, Dayyuan), shim. sharqda Usun (Uysun) davlatlari, shim.-gʻarbda Sarisu, gʻarbda Sirdaryoning quyi oqimi bilan chegaradosh boʻlgan. Xitoy manbalariga koʻra, Qangʻning jan. hududiga hozirgi Oʻzbekistonning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Kattaqoʻrgʻon va Urganch tumanlari kirgan boʻlib, uning chegarasi Amudaryoga borib taqaladi. Qangʻ davlatining qishki poytaxt shaharlari Bityan va Sushiy boʻlgan. Mill. avv. 3-asrda unga saklar asos solgan. Uning poytaxti Qangʻdez boʻlgan. Xitoy manbalarida bu shahar Bityan deb atalgan. Qangʻ davlatining asosiy shaharlar Sirdaryo sohillari boʻylab joylashgan. Mill. avv. 2-asr oxirida qudratli davlatga aylandi. Uning hududidan Buyuk Ipak yoʻlining shimoliy tarmogʻi oʻtgan. Uning aholisi qangʻarlar deb atalgan. Milodiy 3-asrda Qangʻ davlati parchalanib ketdi.

**2. Oktavian Avgust haqida maʼlumot bering.** Oktavian Avgust – birinchi ahamiyatli Rim Imperatorlaridan biri. Rimning yer yuzidagi eng qudratli imperiya boʻlishiga asosiy sababchisi. Avgust oyining nomi ham uning nomidan kelib chiqqan. U Yuliy Sezarning asrandi farzandi boʻlgan. Oktavian, Mark, Antoniy va Lepiduslar bilan Rim Respublikasiga boshchilik qilgan.

**3. “Jevachi” atamasiga izoh bering.** Jevachi, jibachi — sovutdor; oʻrta asrlarda sovut kiygan otliq va piyoda askar; har xil temir qurol egasi; qurol-aslaha saqlanadigan maxsus ombor — jevaxona mutasaddisi (boshqaruvchisi); harbiy yurish vaqtida podshoh va xonning sovut va ogʻir qurol-aslahalarini olib yuradigan kichik mansabdor — jibachigiri.

### 18-bilet

**1. Sparta.** Mil. avv. XII asrda jan. Yunoniston (Lakonika) hududiga doriylar qabilasi bostirib kirdi. Ular mahalliy qabilalarni boʻysindirib, Sparta davlatiga asos soldilar. Sparta eng yirik yunon davlatlaridan biriga aylandi. Spartaliklar qulga aylantirilgan mahalliy aholi – ilotlar ham aslida yunonlar boʻlib, ular bilan bir tilda soʻzlashgan. Mil. avv. VIII-VII asrlarda qullar soni uncha koʻp boʻlmagan. Afinadan farqli oʻlaroq Spartada qulga aylantirilgan aholi koʻpchilikni tashkil etar, ular ham spartaliklardan qattiq nafratlanar edi. Bunday sharoitda oʻz hukmronligini faqat kuch bilan saqlab qolish mumkin boʻlgan. Shuning u, n ham spartaliklar oʻz davlatida alohida shart-sharoitlar yaratdilar: jumladan, hamma amal qilish lozim boʻlgan qatʼiy intizom, aniq-raso rejalashtirilgan turmush tarzi hamda yengilganlarga qarshi shafqatsiz boʻlish. Sparta urushga tayyorgarlik koʻrayotgan bir shaharga oʻxshab qolgan. Chet elliklar Spartaga kiritilmagan. Savdo-sotiq sust rivojlangan, sanʼat asarlari, chiroyli ibodatxonalar ham boʻlmagan. Hamma uylar bir-biriga oʻxshatib qurlgan. Spartada haykaltaroshlar ham, rassomlar ham, olimlar ham boʻlmagan.

**2. Ismoil Somoniy haqida maʼlumot bering .** Abu Ibrohim Ismail ibn Ahmad (Somoniy) - Buxoro amirligi hukmdori (892 - 907). Somoniylar sulolasidan boʻlgan. Ismoil Somoniy oʻrta asrlarning qobiliyatli, sergʻayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U Movarounnahrni birlashtirgach, mustahkam feodal davlatni tuzishga intildi. U oʻz Vatanida barqaror tinchlikni taʼminlab, uni mustahkamlashda hukmronlik qobiliyatining hamma nozik xususiyatlarini ishga soldi. Narshaxiyning yozishicha Amir Ismoil oʻzining kuchli qoʻshinlarini nazarda tutib, "Toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men boʻlaman, — deb aytgan ekan. Shunday qilib, IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos boʻldi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni oʻz qoʻli ostida kuchli bir davlat qilib birlashtirdi. Xurosonda tashkil topgan Safforiylar davlatiga barham berdi va uni oʻz davlatiga qoʻshib oldi. Natijada poytaxti Buxoro shahri boʻlgan zamonasining eng yirik mustaqil feodal davlati tashkil topdi. Ismoil

Somoniylar to'g'ri 907-yil hukmdori qilib o'ldi. Bu davlatni somoniylar xonadonidan bo'lgan hukmdorlar - amirlar X asr oxirlarigacha idora qiladilar.

**3. “Avtonomiya” atamasiga izoh bering.** “Avtonomiya” — konstitutsiyaviy huquqda biron bir hududning unga konstitutsiya yo'l qo'ygan chegaralarida davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi.

#### 19-bilet

**1. Baqtriya.** Baqtriya, Baqtriyona, Baxtar zamin Baktriya — Amudaryoning yuqori va o'rta oqimidagi tarixiy viloyat. Asosan hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning jan. viloyatlari hamda Afg'onistonning shim. qismini o'z ichiga olgan. Shim.da Sug'd, jan.da va jan.-sharqda Araxosiya, Gandhara, g'arbda Marg'iyona bilan chegaralangan. Markaziy shahri Baqtra (Zariaspa) bo'lgan. Baqtriya mil. avv. 6-4-asrlarda Ahamoniylar, Aleksandr (Iskandar), Salavkiylar saltanatlari, so'ngra mil. avv. 3-asr o'rtasidan Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga kirgan; mil. avv. 2-asrda toharlar tomonidan bosib olingach, Tohariston deb atala boshlagan. Baqtriyaning o'tmishda "Ming bir shahar mamlakati" deb atalganligi unda shaharlarning ko'p bo'lganligidan guvohlik beradi. Baqtriya da asosan oromiy yozuvidan va mahalliy tillardan foydalanilgan. Bu davrda metall ishlash sanoati (Dalvarzintepa va boshqalar), me'morlik (Kuchuk-tepa, Hal'aimir va boshqalar), xalq og'zaki ijodiyoti taraqqiy etgan. Baqtriya madaniyati, ayniqsa mil.avv. ming yillikning so'nggi asrlarida yuksalgan (Xotin-rabod va boshqalar). Mahalliy xalq madaniyati yunon, hind va fors madaniyatlari an'analari ta'sirida ham boyigan. Mil. avv. 2-1-asrlarda ipakchilik va pillachilik rivojlangan (yana q. Sopollitepa). Bu davrga oid me'morlik yodgorliklari, numizmatika materiallari, tasviriy va amaliy san'at namunalari Termiz, Zartepa, Dalvarzintepa. Qal'a-imir, Xolchayon va boshqa joylardan topilgan. Jan. B.dagi Bagram, Balx, Dashli, Dilbarjin, Oyxonim, Oltindilsrte-pa, Xadda (Afg'oniston) va Taksila (Pokiston)da olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu hakdagi ma'lumotlarni yanada boyitdi.

**2. Mahmud G'aznaviy haqida ma'lumot bering.** G'aznavilar davlati - Xuroson, Shim. Hindiston hamda qisman Mova-rounnahr va Xorazmda g'aznaviylar sulolasi boshqargan turkiy davlat. G'aznaviylar davlatiga Alpteginning g'ulomi va kuyovi Sabuktegin asos solgan. Davlat nomi saltanatning poytaxti G'azna shahri nomidan olingan. Mahmud G'aznaviy hukmronligi yillariga kelib 11-asr boshlariga kelganda Musulmon Sharqining eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan G'aznaviylar davlatining chegaralari g'arbda Ray va Isfahon shaharlari, Kaspiy dengizi hamda shim.-g'arbda Xorazm va Orol dengizigacha cho'zilgan, sharqda esa Shim. Hindistonning kattagina qis-mini o'z ichiga olgan va jan.da Balu-jistongacha yetgan edi. Mahmud G'aznaviy somoniylar sulolasi barham topgach, ularning Xurosondagi butun hududini, keyinchalik Xorazm davlatini (1017) ham o'z saltanati tarkibiga qo'shib olgan. Biroq Jan. Toxariston (hozirgi Shim. Afg'oniston)dan tashqari Shim. Toxariston (hozirgi Surxondaryo viloyati va Jan. Tojikiston) hududini ham egallash uchun g'aznaviylar kurash boshlaganlarida qoraxoniylar bilan ularning manfaatlari o'zaro to'qnashdi. Keskin kurashlar natijasida Chag'oniylar va Termiz g'aznaviylarga bo'ysundirilgan. G'aznaviylar bilan qoraxoniylar davlati o'rtasidagi chegara Amudaryo deb e'tirof qilingan. 1024— 25 yillarda Mahmud G'aznaviy Termiz yaqinida Amudaryoni kechib o'tib, temir darvoza (Temir qopqa) orqali Sug'dga hujum qilgan va Samarqandgacha borgan. Bu harbiy yurishlar natijasida Omul (Chorjuy)gacha bo'lgan viloyatlar qoraxoniylar hukmronligidan chiqib, g'aznaviylar ta'siriga o'tgan. Bu davrda G'aznaviylar davlati Sharqdagi yirik musulmon davlatiga aylangan edi. Biroq, Mahmud G'aznaviyning o'g'li va valiahdi Mas'ud G'aznaviy hukmronligi davrida (1030—41) G'aznaviylar davlati o'z qo'l ostidagi hududlarni birin-ketin qo'ldan chiqarib, asta-sekin tanazzulga yuz tuta boshladi.

3. “Dukchi” atamasiga izoh bering. “Dukchi” forschadan olingan bo’lib “hunarmand” degan ma’noni anglatadi.

## 20-bilet

### 1. Attika.

Afina Yunonistonning Attika deb atalgan tog’li joyida vujudga kelgan. Arxeologik ma’lumotlarga ko’ra, bu joylarda odamlar neolit davridan boshlab yashagan. Attikaliklar Afina ma’budiga sajda qilganlar. Attikadagi qishloqlar birlashib Afina shahri vujudga kelgan (miloddan avvalgi 9–8-asrlar). Bu vaqtda (Gomer davri) harbiy demokratiya susayib, urug’chilik munosabatlari yemirila boshlagan edi. Hokimiyatni urug’ aristokratlari (evpatridlar) boshqarardilar. Mil. av. 7-asrda Ada evpatridlar siquvi kuchayib dehqonlar ahvoli og’irlashgan edi. Mil. av. 594-yilda savdogarlar aristokratiyasidan Solon arxont (hokim) bo’ldi. U Afinada ijtimoiysiyosiy tuzumni tubdan o’zgartiradigan islohotlar o’tkazdi. Qarzlarni bekor qildi, qarz tufayli qul qilib sotishni taqiqladi, urug’chilik munosabatlariga uzil-kesil zarba berdi. Siyosiy huquq va lavozimlar kishilarning mol-mulkiga qarab belgilanadigan bo’ldi.

### 2. Yustinian I haqida ma’lumot bering.

Imperator Yustinian I hukmronligi davri Vizantiyada (527—565)da ma’muriy va huquqiy islohotlar o’tkazildi, markaziy davlat mustahkamlandi, kuchli armiya vujudga keltirildi. Bu esa Yustinianga 533—534 yillarda Shim. Afrikadagi vandallar davlatini, 555-yilda Italiyadagi ostgotlar qirolligini, Jan.-Sharqiy Ispaniyani bosib olish imkonini berdi. 6-asrning so’nggi o’n yilligi va 7-asr boshlarida ichki tanazzul va tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizliklar ro’y berdi. Armiyada g’alayon boshlandi, keng xalq ommasi unga qo’shildi. 6-asr oxiri —7-asr boshlarida Vizantiya hududining anchagina qismini slavyanlar ishg’ol etdi. 7-asrning 70-yillarida Vizantiya ning shim.g’arbiy chegarasida qad. Bulg’orlar davlati — Bulg’oriston barpo bo’ldi. 636—642 yillarda arablar Vizantiya an Suriya, Falastin, Yukrri Mesopotamiya va Misrni, 693—698 yillarda Shim. Afrikadagi yerlarni tortib oldi.

### 3. “Delegat” atamasiga izoh bering. “Delegat” atamasining ma’nosi “yuborgan”

## 21-bilet

1. **Karfagen.** Karfagen miloddan avvalgi 825-yil Finikiyaning Tir shahri hukmdorlari shimoliy Afrikada Kar-Xadashey “yangi shahar” ga asos soldi. Keyinchalik karfagen nomi bilan mashhur bo’lib, o’rta yer dengizidagi yirik quldorlik davlatiga aylangan. Karfagen quldor asilzodalar respublikasi bo’lib, hokimiyat tepasida ikkita oliy magistr-suffetlar turgan. Magistr lotincha so’z bo’lib, “o’rgatuvchi, o’qituvchi va boshliq” degan ma’noni anglatadi.

2. **Abulg’oziy Bahodirxon haqida ma’lumot bering.** Abulg’oziy Bahodirxon (1603, Urganch-1663.Xiva) – Xiva xoni (1643–1664), shayboniylar sulolasidan, tarixchi va tabib. Abulg’oziy Bahodirxonning og’alari Habash sulton va Elbars sulton otalari Arab Muhammadxonni yengib, uni Qum qal’asiga qamadilar. Otasining tarafdorlari bo’lgan katta og’asi Asfandiyor Eronga, Abulg’oziy Bahodirxon esa Buxoroga Imomqulixon huzuriga qochdi. 1623-yilda akasi Asfandiyorxon Xiva taxtini egallagach, Abulg’oziy Bahodirxon Urganchga hokim qilib tayinlandi. Lekin Asfandiyorxon bilan o’rtalarida nizo chiqib, Abulg’oziy Bahodirxon 1627-yilda qozoq xoni Eshimxon huzuriga qochdi; keyin ikki yil Toshkent hokimi Tursunxon bilan birga bo’ldi. Ko’p o’tmay, turkmanlarning taklifiga binoan u yana Xorazmga qaytdi. Asfandiyor uni Xiva hokimi qilib tayinlashga majbur bo’ldi. 1629-yilda turkmanlar Eronga tobe bo’lgan Niso va Durunni bosib oldilar. Asfandiyorxon Eron bilan munosabatlarning tamoman jiddiylashib ketishidan cho’chib, aybni Abulg’oziy Bahodirxonga to’nkadi va uni 1630-yil qishida Eron podshohi huzuriga garov tariqasida yubordi. Abulg’oziy Bahodirxon shu tariqa 10 yil



Eronda, Isfahon yaqinidagi Taborak qal'asida qamoqda yashadi. 1639-yilning yozida u tutqunlikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Abulg'oziy Bahodirxon bir necha yil taxt uchun kurash olib borib, nihoyat 1644-yil Xiva taxtiga o'tirdi. Abulg'oziy Bahodirxon markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun kurash olib bordi. U 1663-yilda hokimiyatni o'g'li Anushaxonga topshirdi.

**3. "Manifest" atamasiga izoh bering.** Manifest(lot)- hukumatning juda muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojati.

## 22-bilet

**1. Kesh.** Kesh (arab, manbalarida Kashsh, Kass, Kise) — tarixiy shahar va viloyat. Hozirgi Qashqadaryo viloyatining shim.sharqiy qismini egallagan. Dastlab Kesh Kitob o'rnida bo'lgan, keyin 9-10-asrlarda Shahrisabz hududiga ko'chgan. " Kesh " atamasining kelib chiqishi Qashqa-Qashqrud nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Boshqa bir fikrga ko'ra (A.Muhammadjonov), " Kesh " toponimining ma'nosi ilk bor — uy, qishloq, shahar, poytaxt, viloyat, el-yurt, diyor, hatto "Kishvar" shaklida esa mamlakat va Vatan kabi ma'nolarni anglatgan. Xitoy yozma manbalarida qayd etilishicha, hokim Digja (Dichje) (6-asr oxiri 7-asr boshlari) Kesh ga asos solgan bo'lib, o'sha vaqtda shahar aylanasi 1 km ga yetgan. Arab tarixchisi Ya'qubiyshpt yozishicha, Kesh mil. 7-asr o'rtalarida yuksalib, Sug'dning bosh shahriga aylangan. Kesh bu davrda hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniyat yuksak rivojlangan shaharga aylanib ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo'lgan. Ichki shahar mudofaa devori va 4 darvozaga ega edi. 6-asrda arkning g'arbiy qismida shahar hokimi Digja tomonidan yangi qarorgohga asos solingan. 7-asr oxiri — 8-asrning 1-yarmida Keshni arablar bir necha bor fath etgan. 775-776 yillarda Kesh viloyati Muqanna qo'zg'oloninmng asosiy markazlaridan biri bo'lgan. Somoniylar davrida Kesh hududi eni va bo'yiga 1/3 farsax (2 km ga yaqin) maydonini tashkil etgan.

## 2. Amir Umarxon haqida ma'lumot bering.

Umarxon, Amir Umarxon, Amiriy (1787—1822) — Qo'qon xoni (1810—1822), zullisonayn shoir. Norbo'tabiynint o'g'li. O'zbeklarning ming urug'idan. Boshlang'ich savodini oilada chikarib, keyin madrasada tahsil olgan. Yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan: akasi — Qo'qon xoni Olimxonning davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etgan. Olimxon 1807—08 yillarda unga Farg'ona hokimligini topshirgan. Shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylangan. Umarxon vafotidan s'ong taxtga u'gli Muhammad Ali-xon chiqdi.

**3. "Chorizm" atamasiga izoh bering.** Chorizm – chor Rossiyasi tomonidan Markaziy Osiyoga bostirib kirgan 1850-yillardan 1920-yillargacha bo'lgan davrning nomlanishi.

## 23-bilet

**1. Maurya.** Mauriyalar imperiyasi (miloddan avvalgi 4—2-asrlar) — qad. Hishshstondagi yirik quldorlik davlati. Mauriya (Maurya) sulolasidan Magadha hukmdori Chandragupta (miloddan avvalgi 317—293 yillar hukmronlik qilgan) asos solgan. Chandragupta butun Shim.-G'arbiy Hindistonni, miloddan avvalgi 305-yil Balujiston va Sharqiy Afg'onistonni Mauriyalar imperiyasiga qo'shib olgan. Uning o'g'li Bindusara (miloddan avvalgi 293—268) davrida Mauriyalar imperiyasiga Dekan ham tobe bo'lgan. Bindusaraning o'g'li Ashoka davrida (miloddan avvalgi 268—232) Mauriyalar imperiyasi ravnaq topgan. Imperiya shim.da — Kashmir va Himolay tog'laridan jan. da Maysurgacha, g'arbda — Afg'onistondan sharqda Bengaliya qo'ltig'igacha bo'lgan maydonni egallagan. Hindistonning qo'shni va g'arb mamlakatlari bilan savdo, madaniy va diplomatik aloqalari ancha kengaygan. Buddizm butun Hindiston va qo'shni mamlakatlarga tarqalgan. Turli viloyatlar o'rtasida munosabatlar yaxshilangan, sanat, adabiyot va siyosat to'g'risida asarlar yaratilgan. Ashoka vorislari davrida imperiya 2 qismga bo'linib ketgan. Miloddan avvalgi 2-

asr boshlarida Mauriyalar imperiyasining shim.g'arbiy qismi Yunon-Baqtriya podsholigiga qo'shib olingan. Mauriyalar imperiyasining oxirgi shohi Brixadratha shunglar sulolasidan bo'lgan lashkarboshi Pushyamitra tomonidan o'ldirilgan va hokimiyat shu sulola ko'liga o'tgan (miloddan avvalgi 180).

**2. Boburiylar sulolasidan bo'lgan Shoh Jahon haqida ma'lumot bering.**

Shoh jahon (1592.5.1, Lohur 1666.22.1, Agra) — Boburiylar saltanati hukmdori (1627—58), Jahongirshohning 3-o'g'li. Asl ismi Xurram. 1616 yil Dekan (to'g'rirog'i — Dakan)dagi g'alabasidan so'ng Shoh jahon nomini olgan. 1622—25 yillar otasi Jahongirshohga qarshi urushib, yengilgan. 1627-yilda taxt uchun kurashlarda g'olib bo'lib, "Abul Muzaffar Shahobiddin Muhammad Sohirqironi Soniy" taxallusini olgan. Taxtga o'tirgan zahoti bir qancha isyonlarni bostirishga majbur bo'lgan. Shoh jahon poytaxtni Agradan Dehliga ko'chirgan. Bu davrda adabiyot, san'at, musiqa va boshqalar fanlar rivoj topgan. Shoh jahon bir qancha muhtasham obidalarni bunyod ettirgan — Agrada Tojmahal, Qizil qal'a, Dehlida Jome masjid, Lohurda Shalimar bog'i va boshqalar d Shoh jahon davrida Boburiylar saltanati tanazzulga yuz tuta boshlagan. 1630—33 yillarda Gujarat va Dekanda qattiq qurg'oqchilik tufayli ocharchilik bo'lgan, xalqning ahvoli og'irlashgan, shuning uchun Shoh jahon mazkur o'lkalardagi yer solig'ini kamaytirgan. Shoh jahon davrida Yevropa savdo kompaniyalarining Boburiylar davlatiga suqilib kirishi kuchaygan, Shu kezlarda uning o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash avj olgan. Bu kurashda katta o'g'li Avrangzeb g'olib kelib, taxtni egallagan. Shoh jahon Tojmahal maqbarasida xotini Mumtoz Mahal yoniga dafn etilgan.

**3. "Abolitsionizm" atamasiga izoh bering.** Abolitsionizm (lot. Abolitio. – yo'qotish, bekor qilish) – biror qonunga barham berish u.n qilinadigan ijtimoiy harakat.

**24-bilet**

**1. Afrosiyob.**

Afrosiyob – Samarqandning qadimgi xarobasi. Bu nom tarixiy manbalarda qadimgi Samarqandga nisbatan faqat XVII asrdan boshlab uchraydi. Qadimgi Samarqand sug'd manbalarida Smarakanve deb atalgan. Mil. av. 4-asrda Samarqand Aleksandr Maqsuniy qo'shinlari tomonidan istilo etilgach, yunon mualliflari kundaliklarida Maroqanda sifatida eslatiladi. Maroqanda Smarakanve ning yunoncha tarjimasidir. Movarounnahrda somoniylar hokimiyat tepasiga kelgach, qadimgi Smarakanve 9-asrdan boshlab Samarqand deb atala boshlandi. 11 – 15-asrlarda turkiy tilda bitilgan adabiyotlarda Samarqand Semizkent sifatida uchraydi. 15 – asrdan forsiy va turkiy tillardagi manbalarda bir xilda Samarqand nomi ishlatiladigan bo'ldi. Afrosiyob hozirgi Samarqandning shim. chegarasiga tutashgan keng bo'sh tepaliklar bo'lib, uning maydoni 219 ga. Tepalikning shim. Siyob arig'i bilan chegaralangan. Janubiy tomondan „eski shahar“ deb atalgan Samarqandga qo'shilib ketgan.

**2. Oliver Kromvel haqida ma'lumot bering.**

KROMVEL (Cromwell) Oliver (1599—1658) — 17-asrdagi ingliz inqilobi arbobi, independentlar rahbari. 1640 yil Muddatsiz parlament (Qonun chiqaruvchi organ)ga saylangan. 1 — (1642—46) va 2—(1648) fuqarolar urushida qiroli armiyasi ustidan g'alaba qozongan parlament armiyasining asosiy rahbarlaridan biri. KROMVEL armiyaga tayanib presviterianlarni parlamentdan haydagan (1648); qirolni qatl etish va respublika e'lon qilinishiga ko'maklashgan (1649), natijada hokimiyat KROMVEL tarafdorlari qo'lida to'plangan. 1640 yildan lord-general (barcha harbiy kuchlar bosh qo'mondoni). Irlandiya va Shotlandiyada ozodlik harakatlarini, levellerlar va diggerdar harakatini bostirgan, KROMVEL 1653-yil parlamentni tarqatib, yakka shaxs harbiy diktatura rejimi — protektorat o'rnatgan.

**3. “Diktatura” atamasiga izoh bering.** Diktatura (lot. dictatura — cheklanmagan hokimiyat) — davlat hokimiyatini nodemokratik usullar bilan amalga oshirish tizimini ifodalovchi tushuncha, avtoritar yoki totalitar rejim.

## 25-bilet

### 1. Prussiya.

Prussiya qirolligi — 1701-yildan 1918-yilgacha mavjud boʻlgan nemis qirolligi. 1871-yildan imperiya hududining 1/3qismini boshqargan holda Prussiya German imperiyasining yetakchi davlati hisoblangan. Brandenburgda joylashgan Berlin uning asosiy shahri boʻlsada, qirollik oʻz nomini Prussiya tarixiy viloyatidan olgan. Brandenburg-Prussiyaning Buyuk kurfyurst Fridrix Vilgelm I 1688-yilda vafot etadi. Uning mulklari Prussiya qiroli Fridrix Iga (1701-1713) aylangan oʻgʻli Fridrix IIIga oʻtadi. Prussiya gersogligini hisobga olmaganda Brandenburgning barcha yerlari nomiga Gabsburglar humronligi ostida boʻlgan Muqaddas Rim imperiyasining tarkibiga kirgan. Imperiyada faqat bitta nemislar qiroli mavjud boʻlishi sababli Fridrixga imperator Leopold I ning qaroriga muvofiq (ispan vorisligi uchun urushda Fransiyaga qarshi ittifoq evaziga) 1701-yil 18-yanvarda imperiya tarkibiga kirmagan yerlarda „Prussiya qiroli“ sifatida toj kiydirildi. Imperiyada faqat bitta „nemislar qiroli“ mavjud boʻla olishi sababli 1772-yilgacha prussiya monarxlari „Prussiyadagi qiroli“ unvoniga ega boʻlishgan. Yangi paydo boʻlgan qirollik 1713-yilda Utrext bitimiga koʻra boshqa davlatlar tomonidan tan olindi.

**2. Boburiylar sulolasidan boʻlgan Akbarshoh haqida maʼlumot bering.** Akbar Jaloliddin Muhammad (1542–1605, Agra yaqinidagi Sikandra qishlogʻi), "Akbar-shoh" – Boburiylar sulolasidan hukmdor (1556 – 1605). Hindistondagi boburiylar saltanati hukmdori (1556-yildan). Boburning nabirasi, Humoyunning oʻgʻli, 13 yoshida taxtga oʻtirgan (1556-yil 15-fevral). Saltanatini kengaytirish uchun muttasil kurashgan. A. davrida Boburiylar saltanati shimda Balxan tortib janubiyda Godovari daryosigacha (Kashmir va Afgʻoniston hududlari bilan), gʻarbda Arabiston dengizidan sharqda Bengaliya qoʻltigʻigacha boʻlgan ulkan hududni qamrab olgan. Markaz-lashgan saltanat tuzish maqsadida 1574 yildan ichki islohotlar oʻtkazishga kirishadi: qoʻshin ustida nazoratni kuchaytiradi va uni qayta tashkil etib, yangidan qurollantiradi, mamlakatni yangi maʼmuriy tumanlarga boʻladi. Nikoh rish-talari orqali Rajput knyazliklari bilan aloqalarni mustahkamlagan. Rajputlar otliq qoʻshini A. qoʻshinining asosini tashkil qilgan. Yirik yer egalari – jo-girdorlarning oʻzboshimchaligiga qarshi bir qancha chora-tadbirlarni oʻtkazgan, 1574 yil dehqonlar, sarkardalarga yer inʼom etish oʻrniga xazinadan ularga maosh toʻlashni, mamlakatdagi yerlardan soliq toʻplashni oʻz xizmatchilari zim-masiga yuklagan. A. aholi orasida diniy jihatdan oʻzaro birdamlikka erishish maqsadida hindlarni yuqori mansablarga tayinlay boshlagan va yangi din – "dini ilohiy" joriy etgan. Bu din oʻzida is-lom, hinduizm, parsizm va jaynizm dinlarining qorishmasidan iborat boʻlgan. A. dunyoviy va diniy hokimiyatni oʻzida mujassamlashtirgan. Bu dinga eʼtiqod qilganlar A.ning marhamatiga sazovor boʻlganlar. Keyinchalik A. vafotidan soʻng bu yangi din kichik bir mazhabga aylanib qolgan. A. dehqonchilik va savdoga katta eʼtibor bergan, Yevropa mamlakatlari bilan ham savdo-sotiq olib borgan. A. ilm-fan, sanʼatga ham homiylik qilgan. A.ning vaziri va doʻsti Abulfazl Allomiy A. saltanati tarixiga oid "Akbar-noma" asarini yozib qoddigan. A. buyuk davlat arbobi, quvvai hofizasi kuchli, jasur, iqtidorli sarkarda boʻlgan.

**3. “Kapital” atamasiga izoh bering.** Kapital (nem. Kapital; lot. capitalis — bosh, asosiy), sarmoya — keng maʼnoda — oʻz egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega boʻlgan jami vositalar va mablagʻlar; yangi qiymat keltiruvchi, oʻzini oʻzi koʻpaytiruvchi qiymat.

## 26-bilet

**1. Konstantinopol.** Konstantinopol, Vizantii — Vizantiya imperiyasi poytaxti. 324— 330 yillarda Konstantin I asos solgan va imperator sharafiga "Konstantinopol" — "Konstantin shahri" deb nom

qo'yilgan. 330-yilda Konstantin I Rim imperiyasi poytaxtini sharqqa Konstantinopol ga ko'chiradi. Davlat muassasalari va senatning Rimdan ko'chirib kelinishi Konstantinopol ning rivojlanishiga olib keldi. Yirik savdo yo'llarining kesishgan joyida joylashgan shahar, Sharq va G'arb o'rtasida iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalarni bog'lovchi markazga aylandi. 4-salib yurishi davri (1202—04)da salibchilar tomonidan talandi. 1204—61 yillarda Lotin imperiyasi poytaxti. 1261-yil vizantiyaliklar gennyaliklar bilan ittifoq, tuzib, shaharni qaytarib oldilar. 1453-yil 29-mayda uni usmonli turklar egallab, nomini Istanbul deb o'zgartirganlar. Konstantinopol keyinchalik, Istanbul nomi bilan 1923-yilgacha Turkiya poytaxti bo'lgan.

**2. Ismoil I Safaviy haqida ma'lumot bering.** Ismoil I Safaviy (1487—1524) - Eron shohi (1502 y.dan), Safaviylar davlati

asoschisi, sarkarda, shoir. Qizilboshlilar yordamida Ozarbayjonni (1500—01), Tabrizni (1502) egallab, o'zini shoh deb e'lon qilgan. Tez orada Eron, Armaniston, Iroq va Movarounnahrning bir qismini bosib olgan (1503—10). Ismoil I Safaviy davrida Safaviylar davlati ancha kengaygan. 1512 y. Ismoil I Safaviy qo'shinlari Boburga Samarqand taxtini egallashga yordam beradi. Lekin, 1513 y. boshida o'zbek sultonlari Ubaydulla va Muhammad Temur qo'shinidan qattiq zarbaga uchradi. Usmonli turklar bilan bo'lgan urushda Ismoil I Safaviy yengilgach (1514), o'z qo'l ostidagi G'arbiy Armaniston, Kurdiston va Iroqning bir qismidan ajradi. Mamlakat iqtisodini rivojlantirishga intilgan; ma'muriy idoralar faoliyatini mustahkamlagan; mustaqil bo'lishga harakat qilgan ko'chmanchi zodagonlar bilan urush olib borgan. Islomning shia mazxabini davlat dini deb e'lon qilgan. Turkiyazon she'riyatning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan. Ismoil I Safaviy o'qimishli kishi bo'lib, olim, shoir va musavvirlarga homiylik qilgan, Xatoiy taxallusi bilan she'rlar yozgan. Ismoil I Safaviy g'azallar, "O'nta xat" epik dostoni (1506), "Nasihat kitobi"ning muallifi.

**3. "Rezervatsiya" atamasiga izoh bering.** "Rezervatsiya" lotincha "ko'chirilgan joy", "qoralarni imajburan saqlayman" degan ma'nolarni anglatadi.

## 27-bilet

**1. Axsikent.** Axsikat, Axsikent – qadimgi shahar harobasi. Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Shahand qishlog'i hududida, Sirda-ryoningo'ng sohilida joylashgan. Tari-xiy ma'lumotlarga qaraganda, Axsikent shahri miloddan avvalgi 3 – 2-asrlarda vujudga kelgan, 9 – 10-asrlarda Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan. 1219-yil mo'g'ullar tomonidan butunlay vayron qilingan. Axsikentning eski o'rnidan 5 – 7 km g'arbda bunyod etilgan yangi shahar – Axi 14– 17-asrlarga oiddir. Axsikent ni arxeologik jihatdan o'rganish ishlari 19-asr oxirlari –20-asr boshlaridan boshlangan. 1885-yil N. I. Veselovskip, 1914-yil Axsikent I. Kastane qazish va qidiruv ishlari olib borgan. Sho'rolar davrida M. Ye. Massoy (1939) va A. N. Bernshtam (1948)lar tekshirganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida A. ark, shahriston va rabodan iborat bo'lganligi, shaharning uch qismi ham alohida devorlar bilan o'ralganligi, arkda hokim saroyi, zindon, shahristonda ichki bozor, jome masjidi, pishiq g'ishtdan ishlangan hovuz va ariqlar, rabodda hunarmandlar mahallalari va tashqi bo-zor mavjud bo'lganligi aniqlangan. Axsikent Namangan o'lkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham o'rganilgan (1957 – 59). 1960 yil O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti uyushtirgan maxsus ekspeditsiya Axsikent rabodidan 11-asr ga oid ko'hna hammom o'rnini ochgan. U yerdan sopol idish, quvur, chaqa tanga va shisha buyumlar topilgan. Bundan tashqari, Axsikent harobalaridan g'arbroqda o'rta asrlarga oid yana bir shahar harobalari borligi aniqlangan. Akademik Ya. F. Gulomov va arxeolog I. Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu yerda turli davrlarga oid ik-820kita shahar bo'lganligini, ulardan biri qadimgi A. va ikkinchisi Bobur tug'ilgan Axi ekanligini birinchi bo'lib isbot-ladilar. 1967-yil rassom I. A. Smirnov Axsikent harobalaridan yig'ib jamlagan sopol idish, jez buyum va zeb-ziyatlar majmu-

asini Moskvadagi Sharq xalqlari davlat muzeyiga taqdim etgan. A. yodgorligi o'zbek xalqi madaniyati tarixida muhim o'rin tutganligi uchun 1950 yildan davlat muhofazasiga olingan.

**2. Otto fon Bismark haqida ma'lumot bering.** Otto Eduard Leopold Karl-Vilgelm-Ferdinand fon Bismark (nem. Otto Eduard Leopold von Bismarck; 1815-yil 1-aprel — 1898-yil 30-iyul) - «temir kansler» deb atalgan knyaz, siyosatchi, davlat arbobi, German Imperiyasining birinchi kansleri. Prussiya qirolligida Bismark konservatorlar orasida yunkerlar namoyondasi sifatida obro' qozongan, diplomat sifatida faoliyat yuritgan (1851-1862-yillar). 1862-yilda Prussiya hukumatining bosh vaziri etib tayinlangan. Konstitutsion inqiroz vaqtida monarxiyani himoya qilib liberallarga qarshi chiqqan. Tashqi ishlar vaziri sifatida Olmon-Daniya urushidan so'ng Prussiyani Germaniyadagi yetakchi kuchga aylantirdi. U Reyxskansler va Prussiya bosh vaziri sifatida 1890-yilgi iste'fosiga qadar Reyxning siyosatiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bismark tashqi siyosatda kuchlar balansi prinsipiga amal qilgan. Ichki siyosatda uning boshqaruv davrini ikki fazaga bo'lsa bo'ladi. Boshida u o'ta liberallar bilan ittifoq tuzgan. Bu davrda ko'plab ichki reformatsiyalar ro'y berdi, masalan, Bismark tomonidan katolik cherkovining ta'sirini pasaytirish maqsadida Fuqarolik nikohining kiritilishi. 1870-yillarning oxirlaridan boshlab Bismark liberallardan uzoqlashdi. Bu faza davomida u proteksionizm va iqtisodiyotga hukumatning aralashuvi siyosatidan foydalanadi. 1880-yillarda antisotsialistik qonun kuchga kirdi. O'sha vaqtdagi kayzer Vilgelm II bilan kelishmovchiliklar Bismarkning iste'fo berishiga sabab bo'ldi.

**3. “Demokratiya” atamasiga izoh bering.** Demokratiya so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib “demos” - “xalq”, “kratos” – “hokimiyat” ya'ni xalq hokimiyachiligi degan ma'noni bildiradi.

#### 28-bilet

**1. Kat.** Kot, Kat, Kas — Xorazmdagi qad. Shahar harobasi. Hozirgi Beruniy shahridan 2,5 km shim.roqda. Tarixiy manbalarga qaraganda, . Kat turli davrlarda turlicha atalgan bo'lib (mas, Kas, Kaj, Fir, Fil) xorazmiy tilida "qishloq" degan ma'noni anglatgan. Yoqut Xomaviyning yozishicha, K. Jayxun (Amudaryo) ning sharqiy qirg'og'ida, Jurjoniyadan 20 farsax narida bo'lgan. Undagi jome masjidi va xorazmshoh qarorgohi qal'a ortida joylashgan. Bozor shaharning markazida, Jardurishak soyi bo'yida bo'lgan. Muqaddasiy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Kat shahriston deb ham atalib, u kattaligi jihatidan Nishopurga teng edi. "Hududul-olam" ga ko'ra, Kat O'rta ayerdarda turki y elatlarning savdo-sotiq markaziga aylangan. Sam'oniylar esa o'zining "Kitob ul-ansob" asarida K. rabodi "berun" deb atalganini qayd etgan. Beruniy afrig'iylar sulolasining asoschisi Afrig' shahar ichida 3 qavat devor bilan o'ralgan qasr qurdirganligi, uning devorlari niqoyatda baland bo'lib, taxminan 20 km uzoqlikdan ham ko'rinib turganligi haqida xabar bergan. 10-asrda Kat Xorazm davlatining poytaxti bo'lgan. Keyinchalik Amudaryo shaharni yuvib keta boshlagach, aholi uning sharq tomoniga ko'chib o'tib, yangi Kat shahrini qurgan.

**2. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman haqida ma'lumot bering.** Konstantin Petrovich von Kaufman (1818 yil 19 fevral, Demblin - 4 may 1882, Toshkent) - Markaziy Osiyo mintaqalarini bosib olish va kolonizatsiyalashga rahbarlik qilgan Rossiya armiyasi yetakchisi, bosh muhandisi (1874), general (1864) . 1865-1867 yillarda Shimoliy-G'arbiy hududning bosh shtabi, Litva lotin alifbosini ta'qiqlagan. 1867-yildan boshlab - Turkiston gubernatori, Turkiston harbiy okrugining qo'mondoni. Ko'p yillar davomida Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasiga qo'shildi va Xiva xonligi va Buxoro amirligida rus himoyasi tashkil etildi.

**3. “Ekspansiya” atamasiga izoh bering.** Ekspansiya - buyuk davlatlarning o'zgalar hududi va bozorlarini,xomashyo manbalarini bosib olishga,siyosiy va iqtisodiy ta'sir doiralarini kengaytirishga qaratilgan siyosatlari

#### 29-bilet

**1. Avstriya-Vengriya. Avstriya-Vengriya imperiyasi** – Avstriya va Vengriyaning hukmron sinflari o'rtasidagi bitim asosida 1867-yilda Avstriya imperiyasini qayta tuzish natijasida tashkil topgan dualistik (birlashgan ikki davlatli) monarxiya. Bu monarxiya: Avstriya (Sis-leytaniya) va Vengriya qirolligi (Transleytaniya)dan tashkil topdi. Avstriya tarkibiga Chexiya, Moraviya, Galitsiya, Bukovina va boshqa yerlar, Vengriya qirolligiga Slovakiya, Xorvatiya, Transilvaniya va boshqa yerlar kirdi. O'sha yili yangi konstitu-siya qabul qilindi. Avstriya-Vengriya imperiyasi hokimiyatini Avstriya imperatori boshqardi (u Ven-griya qirolligi degan unvonga ham ega edi). Imperator hokimiyati rasman Avstriyada reyxstag, Vengriyada seym tomonidan che-klandi. Butun imperiya bo'yicha uch minis-trlik: 1) tashqi ishlar; 2) harbiy va dengiz; 3) moliya ministrligi tashkil etildi. Harbiy va dengiz hamda moliya ministrligi imperiyaning har ikki qismida ham mavjud edi. Boshqa minis-trliklar Avstriyada ham, Vengriyada ham mustaqil ish yuritgan. 1867 yil bitimiga binoan, Vengriya o'z parlamentiga, ministrligiga, siyosiy va ma'muriy muxtoriyatga ega bo'ldi. Birinchi jahon urushida Avstriya-Vengriya imperiyasining mag'lubiyati va milliy ozodlik kurashlari natijasida 1918 yilning oxirida Avstriya-Vengriya imperiyasi parchalanib ketdi. Avstriya-Vengriya imperiyasi o'rnida Avstriya, Vengriya, Chexoslo-vakiya davlatlari tuzildi, hududning bir qismi esa Yugoslaviya, Ruminiya va Polsha tarkibiga kiritildi.

**2. Perikl haqida ma'lumot bering.** Afinada Perikl davri (miloddan avvalgi 5-asr o'rtalari) qadimgi quldorlik demokratiyasining namunasi edi. Perikl qonuni bo'yicha hamma ozod aholi ishtirok etadigan Xalq majlisi – oliy organ hisoblanar va u barcha muhim davlat ishlarini muhokama qilardi, chek tashlash yo'li bilan saylanadigan 500lar kengashi davlatning ma'muriy-nazorat organi hisoblanar, ijro etuvchi oliy hokimiyat 10 strateg kollegiyasi qo'lida edi. „Perikl oltin asri“ deb atalgan yillar Afina madaniyatining eng yuksak darajada taraqqiy etgan davri bo'ldi. Bu davrda Afinada tarixchi Gerodot, faylasuf Anaksagor, haykaltarosh Fidiy, Esxil, Sofokl va Yevripid kabi adiblar yashagan, katta-katta imoratlar – qasrlar vujudga kelgan. Me'morchilik ustalari – Iktin va Kallikratlar Fidiy rahbarligida Afina ma'budasi ibodatxonasi – Larfenonii bunyod etganlar. Bu kasr kdd. Me'morlik madaniyatining eng yaxshi namunalaridan biri bo'lib qoldi. O'sha vaqtlarda Afina yozuvchilarining tili (attika lahjasi) keng tarqalgan va ellinistik davlatlarda adabiy til hisoblangan. Periklning butun Yunonistonni Afina ga bo'ysundirishga qaratilgan tashqi siyosati yunonlar davlatidagi boshqa guruhlarining qarshiligiga duch keldi. Bu guruxlar orasida Sparta boshchiligidagi Peloponnes ittifoqiniyat e'tibori baland edi. Peloponnes ittifoqi demokratik tartibga qarshi oligarxiya tartibini yoklab chiqdi. O'rtadagi qarama-qarshilik butun Yunoniston uchun halokatli bo'lgan Peloponnes urushini (miloddan avvalgi 431–404) keltirib chiqardi. Urushda mag'lubiyatga uchragan Afina o'zining Yunonistonda tutgan yetakchilik mavqeini yo'qotdi.

**3. “Koalitsiya” atamasiga izoh bering.** Koalitsiya (Lot. coalitio — Uyushmasi) — bir necha shaxslarning ixtiyoriy Birlashmasi (odamlar guruhlari) (Misol uchun: davlatlar, tashkilotlar, siyosiy partiyalar) muayyan maqsadlarga erishish uchun.

### 30-bilet

**1. Kaspiyorti viloyati.** 1869—1885 yillarda Rossiya tomonidan bosib olingan yerlarda Kaspiyorti viloyati tashkil etiladi. 1879-yil iyulda Krasnovodskdan general I.Lazerev qo'mondonligi ostidagi harbiy qo'shin zudlik bilan bu yerga jo'natildi. Hujum qilishga bo'lgan birinchi urinish podsho qo'mondonlarining mag'lubiyati bilan tugadi. 1880-yil may oyida M.Skobelev qo'mondonligi ostidagi qo'shin tomonidan ikkinchi bor urinib ko'rildi. Uch oylik qamaldan so'ng qal'a qo'lga kiritildi. Bosib olingan yerlardan markazi Ashxobod bo'lgan Kaspiyorti viloyati tuzildi. Turkman qabilalari 1885-yilga boribgina podsho qo'shinlari tomonidan zabt etildi. Shu bilan Rossiya

imperiyasining o`rta Osiyo hududidagi bosqinchilik yurishining to`rtinchi bosqichi (1880-1885) tugadi.

**2. Makedoniyalik Aleksandr haqida ma'lumot bering.** Iskandar Zulqarnayn- Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Bu obraz Aleksandr Makedonskiy faoliyati bilan bevosita bog`liq. Iskandar Qur'onning 18-surasidagi afsonalar orqali Zulqarnayn nomi bilan Sharqdagi musulmon xalqlari orasida keng tarqalgan. Iskandar 20 yoshida taxtga o`tirgan. Sharqda uni shoxi bor deb tasnif berishgan. Iskandarning otasi Filipp II ni qastdan o`ldirilgach u tahtga o`tiradi. Iskandar Zulqarnayn miloddan avvalgi 356-yilda tug`ilgan. Iskandar o`sha paytda mashxur faylasuf Arestotel qo`lida tarbiyalangan. Iskandar miloddan avvalgi 336- yili Makedoniya taxtiga o`tiradi. Iskandar Zulqarnayn deganda asosan ikki shoxli Iskandar, degan tushunchani tushunamiz. Haqiqatdan ham ko`pgina tarixiy manbalarda hikoyat va rivoyatlarda Iskandarning shoxi bor degan tahminlar bor. Bazilar Iskandarni ikkita shohi bor desa bazilarida bitta deb tarif berishgan. Bazi tahminlarga ko`ra Iskandar Filipp II ning o`g`li emas balki u Misr hudosi Ammonning o`g`li degan tahminlar bor. Zulqarnayn quyoshga yaqin borib, uni ikki shoxi bilan tutibdi va ayni paytda shoxlari bilan Sharq va G`arbni ham ushlab turibdi. Shu tufayli u "Ikki shoxli" degan nom olibdi. Iskandar xaqidagi ilk ma'lumotlar 10-asr tarixchilari Xamza ibn Hasan al-Isfaxoniy, Dinovary, tabariylar asarlarida uchraydi. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida Zulqarnayn haqidagi mavjud fikrlarga aniqlik kiritganlar. Abu Ali Muhammad ibn Muhammad Bal`amiyning nasriy asarida Iskandar obrazi salbiy shaxs tarzida talqin qilingan. Firdavsiyning "Shohnoma" sida tarixiy fikrlardan birmuncha to`g`riroq foydalanishga xarakat qilingan. Nizomiy Ganjaviyning "Iskandarnoma", Jomiyning "Xiradnomai Iskandariy" dostonlarida Iskandar obrazi fohih, olim, faylasuf va payg`ambar qilib ko`rsatilgan. Iskandar haqida hatto "Qur'on" da keltirilgan bu epizoddan Alisher Navoiy ham o`zining "Saddiy Iskandariy" dostonida mahorat bilan foydalanganligini ko`rishimiz mumkin.

**3. "Rabot" atamasiga izoh bering.** Rabot - ichan qal`aning tashqi qismi, ichki qismi shaxriston

### 31-bilet

**1. Lotin Amerikasi.** Lotin amerikasi (ispancha America Latina) — Shim. Amerikaning jan. qismida, Rio-Bravodel - Norte daryosidan jan.da (Markaziy Amerika va Vest-Indiya bilan birga) va Janubiy Amerika joylashgan mamlakatlarning umumiy nomi. Umumiy maydoni 20,5 mln. km<sup>2</sup>. L. A.da Antigua va Barbuda, Bagama Orollari, Barbodos, Beliz, Gaiti, Gvatemala, Gonduras, Grenada, Dominika, Dominikana Respublikasi, Kosta-Rika, Kuba, Meksika, Nikaragua, Panama, Salvador, Sent-Vinsent va Grenadina, Sent-Kits va Nevis, Sent-Lyusiya, Trinidad va Tobago, Yamayka, Argentina, Boliviya, Braziliya, Venesuela, Gayana, Kolumbiya, Paragvay, Peru, Surinam, Urugvay, Chili, Ekvador dav-latlari va Buyuk Britaniya, Fransiya, Niderlandiya hamda AQSH mulklari joylashgan. L. A. aholisi etnik tarkibi jixatidan juda xilma-xil. L. A. mamlakatlarida Yevropadan ko`chib borganlar va ularning avlodlari, metislar, mulatlar, indeyslar, negrlar, xitoylar, hindlar va boshqa yashaydi. 18 mamlakatda davlat tili yoki rasmiy til — ispan tili, Braziliyada portugal tili, Gaitida fransuz tili, Surinamda niderland tili, qolgan mamlakatlarda ingliz tili. Lotin amerikasi aholisining ko`pchiligi so`zlashadigan roman tillari lotin tili negizida tashkil topganligi sababli qit`aning bu qismi " Lotin amerikasi " deb ataladi.

**2. Ismoil Somoniy haqida ma'lumot bering.** Abu Ibrohim Ismail ibn Ahmad (Somoniy) - Buxoro amirligi hukmdori (892 - 907). Somoniylar sulolasidan bo`lgan. Ismoil Somoniy o`rta asrlarning qobiliyatli, serg`ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U Movarounnahrni birlashtirgach, mustahkam feodal davlatni tuzishga intildi. U o`z Vatanida barqaror tinchlikni ta`minlab, uni mustahkamlashda hukmronlik qobiliyatining hamma nozik xususiyatlarini ishga soldi. Narshaxiyning yozishicha Amir Ismoil o`zining kuchli qo`shinlarini nazarda tutib, "Toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo`laman, — deb aytgan ekan. Shunday qilib, IX asr

oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo'ldi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni o'z qo'li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtirdi. Xurosonda tashkil topgan Safforiylar davlatiga barham berdi va uni o'z davlatiga qo'shib oldi. Natijada poytaxti Buxoro shahri bo'lgan zamonasining eng yirik mustaqil feodal davlati tashkil topdi. Ismoil Somoniy to 907-yil hukmdori qilib o'ldi. Bu davlatni somoniylar xonadonidan bo'lgan hukmdorlar - amirlar X asr oxirlarigacha idora qiladilar.

**3. “Anarxizm” atamasiga izoh bering.** Anarxizm (yun. anarchia – hokimiyatsizlik, beboshlik) – rahbar sifatida faqat alohida shaxsning xohish-irodasinigina tan olib, har qanday hokimiyat va davlat tuzumini rad etuvchi jamiyat to'g'risidagi ta'limot.

### 32-bilet

**1. Mingtepa.** Mingtepa — ko'hna shahar harobasi (miloddan avvalgi 3 — milodiy 5-asr). Andijon viloyati, Marhamat tumani markaziga tutashib ketgan yodgorlik. Xitoy yozma manbalaridagi Ershi shahri bilan aynan deb taxmin etiladi. 1940—50 yillarda A. N. Bernshtam, Yu. A. Zadneprovskiy, keyinchalik (90-yillarda) O'zbekiston FA Arxeologiya institutining Farg'ona otryadi (B. Matboboyev) arxeologik tekshirish ishlari olib borgan. Mingtepa ichki va tashki shahardan iborat bo'lib, mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Hozir faqat ichki shaharni (38 ga) to'rt tomondan qurshagan mudofaa devori saqlanib qolgan. Mingtepadagi tepaliklar soni 52 ta. Ichki shaharning shimoliy-g'arbiy tomonidagi markaziy tepalikning madaniy qatlami 10 m dan ortiq. Eng quyi qatlam miloddan avvalgi 3—2-asrlarga oid. Tepalikdan 5 m qalinlikdagi platforma (tagkursi) ustida qurilgan inshoot qoldiqlari chiqqan. Mutaxassislar fikricha, bu tepalik shahar arki bo'lgan. Mingtepa mudofaa devorining har 38–40 m masofasida kuzatuv minorasi o'rnatilib, uning uzunligi 18 m, eni 9 m, balandligi 3–4 m ga yetgan. Minora o'rtasida shinaklar bilan ta'minlangan xona joylashib, unda soqchilar yashagan. Burjlarni o'zaro tutashtirib turgan mudofaa devorining qalinligi quyi qismida 7 m, yuqorida 4 m, balandligi 4 m ga yetgan. Devor va burj, asosan, yaxshi pishirilgan paxsa va xom g'ishtlardan tiklangan. Devor tashqarisida xandaqlar qazilgan.

Qadimda Mingtepa o'rnida bo'lgan Ershi shahrini xitoyliklar bir necha marta qamal qilib, ishg'ol eta olmaganlar (qarang Ershi mudofaasi)

**2. Yuliy Sezar haqida ma'lumot bering.** Gaius Julius Caesar (lot. Imperator Gaius Iulius Caesar — Imperator Gay Yuliy Sezar (Gayus Yulius Kaysar)) (mil. avv. 102 yoki 100-yil — 15 mart mil. avv. 44-yil) — Rim diktatori (49, 48— 46, 45; 44 yildan umrbod), sarkarda, yozuvchi. Siyosiy faoliyatini demokratik guruh tarafdori sifatida boshlab, harbiy tribun (73), edil (65), pretor (62) lavozimlarida bo'lgan. Konsullikka intilib, 60-yili Pompei va Krase bilan ittifoq tuzgan (1-triumvirat). Konsul (59), so'ngra Galliya noibi; 58— 51 yillarda butun Alp orti Galliyasini Rimga bo'ysundirgan. Krase vafotidan keyin 48 yil armiyaga tayanib, yakka hokimlik uchun kurash boshlagan. Pompei va uning tarafdorlarini 49— 45 yillarda tormor qilib, hokimiyat tepasiga chiqqan. Uz qo'lida respublikaning eng muhim lavozimlarini (diktator, konsul va boshqalar) jamlab, amalda rasmiy monarx bo'lgan. Respublikachilar fitnasi natijasida o'ldirilgan. "Galliya urushi haqida xotiralar" va "Grajdanlar urushi haqida xotiralar" asarlari muallifi; kalendarni isloh qilgan (Yuliy kalendari).

**3. “Migratsiya” atamasiga izoh bering.** Migratsiya (lotin.ko`chaman) - u yoki bu davlat aholisining bir hududdan boshqa hududga yoki bir mamlakatdan 2-mamlakatga ko`chishi.

### 33-bilet

**1. Marg'iyona.** Marg'iyona (yun., qadimgi forsha Margush, Avestoda — Mouru, o'rta forshada — Marv) — O'rta Osiyodagi katta tarixiy madaniy viloyat. Murgob daryosining o'rta oqimidagi hududlar va Marv vohasi (Turkmaniston)dan



iborat bo'lgan. M. hududida — eneolit davrida ibtidoiy odamlar yashagan. Miloddan avvalgi 2-ming yillik boshlarida Murg'obning yuqori havzasida qad. dehqonchilik markazi (Kallali vohasi) vujudga kelgan, bu yerda atrofi minorali mudofaa devori bilan o'ralgan yirik qishloqlar paydo bo'lgan. Ilk temir davri(miloddan avvalgi 1ming yillik boshlarida viloyatni o'zlashtirish davom etgan. Yirik sug'orish tizimlari barpo qilingan, sun'iy baland tepaliklar ustiga qurilgan qo'rg'on(qal'a)li qishloqsar paydo bo'lgan (Yoztepa, Arvalitepa), ular kichik mulklarning markazi sanalgan. Miloddan avvalgi 1ming yillik o'rtasida viloyat markazi jan.ga, Erk qal'a va Gabr qal'a o'rniga ko'chgan, bu yerda M.ning poytaxt shaxri — qad. Marv bunyod etilgan. M.ni Axomaniylar davlati tomonidan bosib olinishi (miloddan avvalgi 6-asr 2-yarmi) Frada boshchiligidagi Martena qo'zg'olonin keltirib chiqargan. Qo'zgonon Doro hukmronligi (miloddan avvalgi 521—486)ning dastlabki yillarida ayovsiz bostirilgan. M. Baktriya satrapligi tarkibiga kiritilgan. Miloddan avvalgi taxminan 329 yil M. Aleksandr tomonidan bosib olingan. Aleksandr bu yerda (Gabr qal'a o'rnida) Aleksandriya shahriga asos solgan. Miloddan avvalgi 4-asr oxiridan miloddan avvalgi 3-asr o'rtalarigacha M. Salavkiylar davlatiga tobe bo'lgan. Viloyat markazi qilib Marg'iyonadagi Antioxiya shahri olingan. Yunon-Baqtriya podsholigi barpo etilgach, M. Ma'lum vaqt uning satrapiyalaridan biri bo'lgan. Miloddan avvalgi 2-asr ning 2-yarmida M. Parfiya tarkibiga kirgan. Milodiy 1-asrning 2-yarmidan — 3-asr boshigacha bu yerda mahalliy shoh Sanobarning avlodlari sulolasi qaror topgan. Milodiy 3-asr 2-choragidan — 4-asr o'rtasigacha M. Sosoniylar davlatita bo'ysungan. 651 y. M.ni arablar fath etgan.

**2. Muhammad Xorazmshoh haqida ma'lumot bering.** Muhammad Xorazmshoh, Muhammad II Aloiddin, Aloiddin Muhammad (to'liq ismi Qutbiddin Muhammad ibn Takash ibn Elarson ibn Anushtegin) (taxminan 1182—1220 yil dek.) Anushteginiylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshohlar davlati hukmdori (1200 yil 3 avg. — 1220 yil dek.). Otasi — Takashxorazmshoh, onasi Tur-kon xotun qipchoqxon Jonkishining qizi. M. 1193 yildek. da otasi tomonidan Nishopur shahriga voliy(hokim) qilib tayinlangan 1198 yilda xalifa Nosir Takashga va uning o'g'li Qutbiddin Muhammadga sharaf libosi va Xuroson, Turkiston va Iroq ajami sultoni ekanini tasdiqlovchi manshur (yorliq) jo'natgan. Takash vafotidan so'ng Xorazmshohlar davlati taxtiga Qutbiddin Muhammad o'tirdi. U otasining Aloiddin laqabini, keyinroq esa Sanjar (ikkinchi) nomini qabul qildi. M. davrida saltanat ham hududiy, ham kuch-qudrat jihatidan o'zining yuksak cho'qqisiga yetgan. M. davrida Xorazmshohlar davlati shim.da Orol, g'arbda Kaspiy dengizigacha, jan. da Iroqqa G'aznagacha, sharqda Yettisuvgachakengaygan. 1207 yilda Xurosonda va Fors Iroqida o'z mavqegini mustahkamlab olgan M. e'tiborini Movaro-unnaxrga qaratdi. Bunga sabab qoraxoniylarning so'nggi hukmdori Usmon ibn Ibrohimning qoraxitoylarga qarshi kurashda (qarang Malik Sanjar qo'zg'oloni) yordam so'ragani bir bahona bo'ldi. Xorazmshoh qo'shinlari qoraxitoylarning Tayangu boshliq qo'shini bilan Ilamish sahrosida to'qnashdi. Bu jangda korraxitoylar mag'lub bo'lib, Movarounnahrda O'zgardgacha bo'lgan yerlar Xorazmshoh tasarrufiga o'tdi.

**3. “Ulus” atamasiga izoh bering.** “Ulus” atamasi mog'ulchadan davlat xalq odamlar degan ma'noni aglatadi.

### 34-bilet

**1. Aleksandriya Esxata.** Aleksandriya esxata, Chekka Iskandariya – Aleksandriya yurishlari davrida istilo qilingan mamlakatlarda qurdirgan 70 dan ortiq shahardan biri. Hozirgi Xo'jand sh. o'rnida bo'lgan. Arri-an va Kvint Kursiy Rufning yozishicha, Aleksandr Marokandani zabt etgach, Ta-nais (Sirdaryo) bo'yiga kelib, qo'shiniga dam beradi. Shunda u qo'shin joylashgan yer atrofini devor (uz. 60 stadiy, 1 stadiy – 176,6 m) bilan o'rab bir shahar qurishni amr qiladi. Chunki

bu shahar uning skif (sak)larga qarshi urushlarida mudofaa uchun zarur edi. Shahar shu qadar tez bunyod etiladiki, hatto 17 (yoki 20) kun deganda mudofaa inshootlari va turar joylar ham qurib bitkaziladi. Aleksandr bu shaharni ham o'z nomi bilan atashni buyurib, unga ellin asirlari va urushga yaroqsiz bo'lib qolgan makedonaskarlarini joylashtiradi. So'ng o'z oda-tiga binoan tangrilarga qurbonliklar qilib, katta tantana uyushtiradi.

**2. Kebekxon haqida ma'lumot bering.** Kepakxon Ibn Duvaxon, Kabakxon, Kebekxon, Kebek (?— 1326) — Chig'atoy ulusining xoni (1309 va 1318—26). Mamlakatni harbiy-ma'muriy tumanlarga bulib idora etish tartibini joriy qilgan. K. pul islohoti ham o'tkazib, muomaladagi har xil pullarning o'rniga Oltin O'rdaniki singari kumush tangalarni zarb qildirgan. Ular kepaki deb yuritilgan. Nasafdand 2 farsax (12—14 km) narida saroy qurdirgan. Keyinchalik bu saroy yonida shahar barpo etilib, Qarshi (mug'ulcha — saroy) deb atalgan. Poytaxt Nasafdand Qarshiga ko'chirilgan. Mirzo Ulug'bekning yozishicha, Chingizxon davridan buyon harobaga, qamishzorga aylangan Qubbatul-islom-Balx yana qayta tiklangan.

**3. “Universitet” atamasiga izoh bering.** Universitet (olmoncha Universität so'zidan, u esa o'z navbatida lotincha universitas magistrorum et scholarium — «o'qituvchilar va olimlar jamoati» iborasidan kelib chiqqan) fundamental va amaliy fanlar o'qitilib, mutaxassislar tayyorlanadigan oliy ta'lim muassasasidir.

### 35-bilet

**1. Bobil.** Mil.av 2-ming yillikda Bobil podsholigi mesopatamiya Janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi. Bobil so'zining ma'nosi xudolar darvozasi degan ma'noni anglatadi. Bobilda 8 ta darvoza bor ularning ichidagi eng ko'rkami “Ishtar” darvozasidir. Bobil davlati taraqqiyoti cho'qqisiga XAmurappiy davrida(1792-1750) erishdi. Xamurappiy tarixda qonunlar yozuvchisi nomi bialn ham tanilgan. U 247 ta qonun yozgan. Xamurappiy davlatni 30 yildan ortiqroq boshqaradi. Shundan so'ng bobilni ko'chmanchi kassetlar bosib oladi. Nihoyat mil.av VII asrda yangi bobil podsholigiga asos solinadi .(Navuxodonosor II).

**2. Shohrux Mirzo haqida ma'lumot bering.** Mirzo Shohrux Shohrux isming lug'aviy manosi SHox (podsho)ning Yuzi degan manoga egadir, boshqa ismlari: Amirzoda Shohrux, Mirzo Shohrux, Shohrux mirzo, Xoqoni sa'id, Abu Nasr Shohrux bahodir sulton, 1377-yil 20-avgust, Samarqand – 1447-yil 19-mart, Ray) Amir Temurning to'rtinchi o'g'li, Mirzo Ulug'bekning otasi. 1397 yildan Xuroson (hozirgi Afg'oniston) shohi bo'lgan, 1409-yildan esa Temuriylar davlatini shohi bo'lgan. Hayoti davomida Temuriylar davlati bo'linishi to'xtatishni istagan. Mirzo Shohrux , Shohrux isming lug'aviy manosi SHox (podsho)ning Yuzi degan manoga egadir, boshqa ismlari: Amirzoda Shohrux, Mirzo Shohrux, Shohrux mirzo, Xoqoni sa'id, Abu Nasr Shohrux bahodir sulton, 1377-yil 20-avgust, Samarqand – 1447-yil 19-mart, Ray) Amir Temurning to'rtinchi o'g'li, Mirzo Ulug'bekning otasi. 1397-yildan Xuroson (hozirgi Afg'oniston) shohi bo'lgan, 1409 yildan esa Temuriylar davlatini shohi bo'lgan. Hayoti davomida Temuriylar davlati bo'linishi to'xtatishni istagan.

**3. “Parlament” atamasiga izoh bering.** Parlament (fransuzcha “parlement” – “rasmiy so'zlashish joyi”, “notiqlik koshonasi”) – davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi.

### 36-bilet

**1. Shumer.** Shumer, Sumer - Janubiy Mesopotamiya (hozirgi Iroqning jan. qismi)dagi tarixiy viloyat. Mil. av. 3-ming yillik oxirigacha Sh. da shumerlar va qisman sharqiy somiylar — akkadlar yashagan. taxminan mil. av. 3-ming yillikda u yerda sinfiy jamiyat va davlat vujudga kelgan. Ilk sulolalar davri (mil. av. 2700—2300) da shahrida mixxat paydo bo'lgan. shahridagi quldorlik shahar davlatlari (Uruk, Kish, Ur, Lagash, Akkad va boshqalar) o'rtasida gegemonlik uchun kurash avj olgan. Mil. av. 24-asrda Akkad hukmdori Sargon butun

Mesopotamiyani o'z qo'l ostida birlashtirgan. Keyinchalik Sh. Bobil davlati tarkibiga qo'shib olingan.

**2. Abulxayrxon haqida ma'lumot bering.** Abulxayrxon (1412-1468) – tarixda Ko'chmanchi o'zbeklar davlati deb nom olgan davlat asoschisi. Tura (G'arbiy Sibir) xoni bo'lgan. 1446-yilda Abulxayrxon Sirdaryo bo'yidagi bir qancha shahar va qal'alar (Oqqo'rg'on, Aruq, O'zgan, Sig'noq, Suzoq)ni bosib oldi. 1447-yilda mamlakat poytaxti Sibirdan Sig'noqqa ko'chirildi. 1431-yilda Abulxayrxon Xorazmni bosib oldi. 1448-yilda ko'chmanchi o'zbeklar Movarounnahrda bostirib kirdilar va Samarqandni qamal qildilar. 1451-yilda Abulxayrxon Abu Said bilan qo'shilib yana Samarqandga yurish qildi va uni taxtga o'tqazdi. Ko'chmanchi o'zbeklar keyinchalik temuriylardan Muhammad Jo'qiyga ham ko'maklashdilar (1460-62). Abulxayrxon vafotidan keyin uning dushmanlari (Iboqxon, Jonibek, Burk sulton, Yomg'urchi, Muso mirzo, Ahmadxon) taxt vorisi Shayx Haydarni mag'lub qildilar va Ko'chmanchi o'zbeklar davlatini qulatdilar. Lekin XV asrning 80-yillarida Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon o'z raqiblari ustidan g'alaba qozondi va hokimiyatni qo'lga oldi.

**3. “Industriya” atamasiga izoh bering.** Industriya — xalqxo'jaligining jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan yetakchi tarmog'i.

### 37-bilet

**1. Finikiya.** Finikiya — O'rta dengizning sharqiy sohilidagi qad. viloyat. Rivoyatlarga ko'ra, F.ning aholisi Eritreya dengizi sohillaridan kelgan; ayrim finikiyalik tarixchilarning fikricha, finikiyaliklar F.ning tub aholisidir. Miloddan avvalgi 5—4 ming yillikda F. O'zining qulay geografik joylashuviga ko'ra, Mesopotamiya va Nil vodiysi aholisi bilan faol savdo-sotiq olib borgan. Miloddan avvalgi 2ming yillik boshlarida quldorlik shahardavlatlari: Ugarit (RasShamra), Sidon (Sayda), Beruta (Bayrut), Arvad(Arad), Tir (Sur) va boshqa vujudga kelib, ular miloddan avvalgi 12-asrgacha Misr fir'avnlari qo'l ostida bo'lgan. Miloddan avvalgi 13-asr oxiri — 12-asrning boshida F. nihoyat Misr mustamlakasidan xalos bo'lgan. Miloddan avvalgi 1ming yillikda F. O'rta dengiz sohil bo'yining Markaziy va G'arbiy qismini egallab, bu yerlarga kuplab finikiyalik savdogarlar va qaroqchilar kelishi avj olgan. Tasos o.da temir rudasi konlari ochilgan, Melkart xudosi ibodatxonasi va kichik qishloq bunyod etilgan. Atlantika okeaniga tutashgan Shim. Afrika soxillarida, Like, Ispaniyaning jan. kismida, Gades, Malaka, Seksi, Abdera, Sitsiliyada Motiya, Panorm va Sardiyada Nora shaharlari qad. Ko'targan.

**2. Ubaydullaxon haqida ma'lumot bering.** Ubaydullaxon O'zbek hukmdori, shayboniylar sulolasi vakili, 1533-1540 yillarda Buxoro xonligini boshqargan. Shayboniyxon halok bo'lgach, uning o'rniga amakisi Ko'chkinchixon taxtga o'tirdi. Ko'chkinchixonidan so'ng taxtga o'g'li Abu Said (1530-1533) o'tirdi. Undan keyin esa hukmdorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxon (1533-1540) qo'lga o'tdi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chirtirdi. Ubaydullaxon Buxoroga ota-meros mulk deb qarar edi, chunki Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi Mahmud Sulton Ubaydullaxonning otasiga bergan edi. Shu tariqa, shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati endilikda rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi. Ubaydullaxonning tariximizdagi xizmatlari katta. Avvalo, u Ismoil Safaviy va qizilboshlarning hujumlarini bartaraf etib, Movarounnahrni ularning harbiy-siyosiy tazyiqlaridan saqlab qoldi. Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning markaz sifatidagi nufuzi har tomonlama o'sdi. Ubaydullaxon o'z davlatining chegarasini Shayboniyxon davridagi sarhadlarda qayta tiklashga harakat qildi. U Hirotni ishg'ol etgan, qizilboshlarni bir necha marta mag'lubiyatga uchratgan edi. Ayni paytda u mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurash va tarqoqlikka barham berdi. Ubaydullaxon vafot etgach, ichki ziddiyatlar yana kuchaydi.

**3. “Anarxizm” atamasiga izoh bering.** Anarxizm (yun. anarchia – hokimiyatsizlik, beboshlik) – rahbar sifatida faqat alohida shaxsning xohish-irodasinigina tan olib, har qanday hokimiyat va davlat tuzumini rad etuvchi jamiyat to‘g‘risidagi ta‘limot.

### 38-bilet

**1. Midiya.** Midiya — Eron tog‘ligining shim.-g‘arbiy qismidagi tarixiy viloyat; qadimda qabilalar ittifoqi nomi, so‘ngra poytaxti Ekbatona (hozirgi Hamadon) bo‘lgan podsholik (miloddan avvalgi 7-asr 70-yillari — 6-asr o‘rtalari). Dastlab Midiya liklar miloddan avvalgi 9-asrning 2-yarmiga oid ossuriy yilnomalarida qayd etilgan. Aftidan, qabila ittifoqi mahalliy tub qabilalar uyushmasidan tashkil topgan; biroqmil. av. 9—8-asrdayoqyangi qabilalar kelishi bilan bu ittifoqda M.dagi forsiyzabon qabilalar ustunlik qila boshlagan. M.liklar 9—8-asrlarda harbiy demokratiya sharoitida yashaganlar. Bu ibtidoiy jamiyatdan ilk qulchilikka o‘tish davri edi. Jamiyatning iqtisodiy asosini dehqonchilik va chorvachilik(ayniqsa, yilqichilik) tashkil qilgan, shuningdek, hunarmandchilik turlari ham taraqqiy etgan. Miloddan avvalgi 9—8-asrlarda M.liklar ularning bir qism yerlarini bosib olgan Ossuriyaga qarshi ayovsiz kurash olib borganlar. Ossuriya asoratidan xalos bo‘lgach, Gerodotning ma‘lumotiga ko‘ra, M. podsholigi barpo etilib uning birinchi podshosi Deyok (miloddan avvalgi 727—675) bo‘lgan. Ossuriy manbalariga ko‘ra, esa, Midiya podsholigi miloddan avvalgi 7-asrning 70-yillarida vujudga kelgan, bunda Ossuriyaga qarshi kurashda M.liklarni kelgindi qabilalar — kimmeriyalar va skiflar qo‘llab-quvvatlashgan. Kiaksar Midiyaning eng buyuk podshosi bolgan.

**2. Jaloliddin Manguberdi haqida ma‘lumot bering.** Jaloliddin Manguberdi (to‘liq ismi — Jaloliddin Abulmuzaffar Manguberdi ibn Muhammad) (1198—1231) — Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori (1220-yildan), Alovuddin Muhammad II ning to‘ng‘ich o‘g‘li. U 33 yil umr ko‘radi va uni 11 yili jang ichida o‘tadi. Onasi — Oychechak turkman kanizaklardan bo‘lgan. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo‘lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o‘zgarib "Manguberdi" nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan. Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G‘azna, Bomiyon, G‘ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo‘lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan (1215). Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o‘zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan. Chingizxon katta qo‘shin to‘plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o‘zi otlangan. Fapdiz qal‘asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo‘shinining ilg‘orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo‘shini Jaloliddin Manguberdini daryodan utishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo‘lgan tengsiz jangda (qarang Sind daryosi bo‘yidagi jang) mag‘lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan Sindning o‘ng sohiliga suzib o‘tib, cho‘l ichkarisiga kirib ketdi (Bu cho‘l hozirda ham Cho‘li Jaloliy deb ataladi). Chingizxon Jaloliddin Manguberding bu jasoratidan hayratda qolib, o‘z o‘g‘illariga qarab: "Ota o‘g‘il mana shunday bo‘lishi lozim!", degan. Mayofariqin viloyatidagi qishloqlardan birida mo‘g‘ullar tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberding oz sonli qo‘shinini tor-mor keltiradilar, Jaloliddin Manguberdini o‘zi esa ta‘qibdan qutulib Kurdiston tog‘lariga chiqib ketgan. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo‘liga asir tushib, fojiali ravishda halok bo‘lgan. Jaloliddin o‘ta qat‘iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi".

**3. “Miniatura” atamasiga izoh bering.** Miniatyura (frans. miniature; lot. minium — qizil bo‘yoq) — badiiy usullari o‘ta nafis bo‘lgan kichik hajmli (mo‘jaz) tasviriy sanat asarlari.

### 39-bilet

**1. Yunoniston.** Bolqon yarimoroli va O'rtayer dengizi orollaridagi qadimgi yunon davlatlarining umumiy nomi Qadimiy Yunoniston deb atalgan, shimol tarafidan tashqari, Qadimiy Yunonistonni O'rtayer dengizi o'rab turadi. Yunoniston hududining uchdan bir qismini tog'lar egallagan. Yunonistonning eng baland tog'i Olimpdir. Bu tog' mamlakatning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Serunum dalalar faqat vodiylarda bo'lgan. Tog'lar o't o'lanlar va butalar bilan qoplangan. Yunonistonning shimolida va Peloponnesda yunonlar uchun nihoyatda qadrli bo'lgan ninabargli o'rmonlar o'sgan. Qadimgi Yunoniston Bolqon yarimoroli va O'rtaayer dengizi oralig'ida joylashgan. Yunonistonda eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri paydo bo'lgan. 2-mingyillikda Janubiy Yunoniston va Krit orolida ilk shaharlar vujudga kela boshladi (Knoos, Miken, Trinf, Pilos). Yunonlar odamlar yashaydigan joyni Oykumena deb atashgan. Yunonlarda shahar Polis deb atalgan. Og'ir qurollangan jangchilar Goplit deb atalgan. Ularning jangovar safga tuzulishi falanga deb atalgan. Afina shahriga 2 mingyillikda asos solingan. Afina aholisi 3 guruhga bo'lingan. Ular (fuqarolar, chetelliklar, qullar). Afinada xususiy maktab-polistra (14 yoshdan) oliy talim esa 3-4 yil bo'lgan. U yerda astronomiya, geometriya, geografiya, tarix o'qitilgan. Sparta davlatida mill. avv 12 asrda janubiy yunoniston (Lakonika) hududida tashkil topgan. Bu yerda perieklar yarim ozod kishilar, elotlar qullardir. Yunonlar 8-6 asrlarda kaloniyalarga asos slogan. Jumladan Oliviya, Xersones, Pantikapey va boshqalar. 8-asrda 24 ta harfdan iborat alifboga asos soladi. Ularda markaziy maydon AGORA hisoblanadi. Yunonlar mill avv 490-449-yillardagi yunon-fors urushlarida g'alaba qozonadi.

**2. Amir Temur haqida ma'lumot bering.** Amir Temur 1336-yil 9-aprelda qadimgi kesh viloyatidagi (hozirgi shahrisabz) yakkabog' tumanida (Xo'ja ilg'or qishlog'ida) tug'uladi. Uning to'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul. Onasi Takinaxotun. Shayx Shamsiddin kulol Temurbekning piri bo'lgan. Amir temur mohir chavandoz va jangchi bo'lgan. Amir Temurning asosiy maqsadi markazlashgan davlat tuzish edi. Bu maqsadga 1370-yil 11- aprelda erishadi ungacha eesa 1365-yil tarixda mashhur bo'lgan loy jangida Ilyosxo'ja ustidan g'alaba qozonadi. Amir Temur birin ketin hududlarni qo'lga kirita boshlaydi. Jumladan sharqiy Turkiston tomon bir necha marta yurish qiladi. Mog'ullarga zarba berib Farg'ona, O'tror, Yassi va Sayramni bosib oladi. Hisor Badaxshon, Qunduzni ham egallaydi, 1381-yil Hirot, Seiston, Mazondaronni egallaydi. Shundan so'ng Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlarini jangsiz egallaydi. Xorazmga 5 marta yurish qilib 1382-yilda egallaydi. Amir Temur tarixda 3 yillik [1386-1388] 5 yillik [1392-1396] va 7 yillik [1399-1404] yurishlarni amalga oshiradi. Bu yurishlar davomida Eron, Ozarbayjon, Iroq, Suriya, Kavkaz kabi hududlarni egallaydi. U 1402-yil Usmoniylar imperiyasi hukmdori Boyazid bilan Anqara jangida to'qnashadi va g'alaba qozonib, Yevropani Usmoniylardan asrab qolib, Yevropa haloskori nomiga sazovor bo'ladi. Amir Temur 1405-yil 18-fevralda Xitoyga bo'lgan yurishida halok bo'ladi.

**3. "Shomonlik" atamasiga izoh bering.** Shomonlik, shamanlik (evenk tilida shaman — jazavaga tushish) — ibtidoiy diniy e'tiqod shakllaridan biri. Yovuz va ezgu ruhlarga, ularning inson hayotiga ta'sir ko'rsatishiga ishonish shahrining asosini tashkil etadi.

#### 40-bilet

**1. Miyonqol.** Miyonqol, Miyonkol, Miyonkolot — O'zbekistondagi Oqdaryo va Qoradaryo oralig'idagi joy. Qad.da Samarqand Sug'di, Nim Sug'd (yarim Sug'd), Sug'di Xurd (Kichik Sug'd) nomlari bilan mashhur bo'lgan. Xonliklar davrida Buxoro bilan Samarqand o'rtasida uz. 12 farsang keladigan devor olingan. M. dehqonchilik uchun qulay bo'lib, Xatirchi, Payshanba, Qal'ai Dabus va boshqa shahar, qishloqlarni o'z ichiga olgan. Keyinchalik Zarafshon vodiysining Samarqand bilan Xatirchi oralig'idagi yerlar M. deb atalgan.

**2. Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ma'lumot bering.**

**Telegram kanalimiz: @ZiyoEDU – imtihon javoblari**

**Murojaat uchun: @imtihonchi**

Z.M.Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug'ilgan. Otasi Umarshayx Mirzo bo'lgan. Umarshayx Mirzo 1494-yilda vafot etadi hokimyat 12 yoshli Boburga qoladi. Bobur Samarqandga 4marta yurish qiladi. 1496,1497,1500,1511-yillarda. Bobur 1501- yildagi mag'lubiyatidan so'ng Kobulga ketadi. 1512-yilda Ubaydulla sultondan mag'lub bo'lib kobulga ketadi. Kobulni o'gli Kamron Mirzoga qoldirib o'zi Hindistonga yurish qiladi 1526-yilda Dehlini egallaydi. 1526-yili 27-aprelda Bobur nomiga xutba o'qiladi. Bobur 1530-yili 26-dekabrda 47 yoshida vafot etadi. Boburni Bog'I Oromga dafn etadi. Z.M.Bobur Mubayyin Turkiy Devon Boburnoma asarlarini yozadi. Boburnoma asari 1493-1529- yilgi voqealar haqida bayon etilgan. Boburning 510 yilligi 1993-yili keng nishonlandi.

**3. “Yasoq” atamasiga izoh bering.** Yasoq (mo'g'ulcha dzasaq — qonun; jazolash) —1206 yil Chingizxon buyuk qurultoyda ulug' xon etib saylanganda e'lon qilingan qonunlar majmuasi.

@ZiyoEDU